

MILLIY QADRIYATLARIMIZNI, TILIMIZNI,  
URF-ODAT VA AN'ANALARIMIZNI  
QADRLAYOTGAN, XALQIMIZ MANFAATINI HAR  
NARSADAN USTUN QO'YAYOTGAN NOMZOD -

# SHAVKAT MIRZIYOYEVGA OVOZ BERING!



SAYLOV -  
2023

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



«MILLIY TIKLANISH»  
DEMOKRATIK  
PARTIYASINING UJIMOIY-  
SIYOSIY GAZETASI



1995-yil 10-iyundan chiqib boshlagan [www.mt.uz](http://www.mt.uz) / [milliytiklanish2022@uzmail.uz](mailto:milliytiklanish2022@uzmail.uz)

tiklanish

№ 19 (1207)  
2023-yil 21-iyun,  
chorshanba  
Adadi - 8657

## «MAQSADIMIZ – BIR!»

”

TADBIRKORLAR VA  
ISHBILARMONLAR HARAKATI  
– O‘ZBEKISTON LIBERAL-  
DEMOKRATIK PARTIYASI  
TOMONIDAN KO‘RSATILGAN  
HAMDA «MILLIY TIKLANISH»  
DEMOKRATIK PARTIYASI  
TOMONIDAN QO‘LLAB-  
QUVVATLANGAN NOMZOD  
SHAVKAT MIRZIYOYEV O‘TGAN  
HAFTA QORAQALPOG‘ISTON  
RESPUBLIKASI VA XORAZM,  
ANDIJON, FARG‘ONA HAMDA  
NAMANGAN VILOYATLARI,  
KUNI KECHA ESA BUXOROLIK  
SAYLOVCHILAR  
BILAN UCHRASHDI.



# MAQSADIMIZ

## XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR O‘ZBEKISTON XALQINING ROZILIGIGA ERISHISH 2-3 s

O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI SAYLOVIGA

# 18

KUN  
QOLDI

FRAKSIYADA



BAYROG‘IMIZGA O‘ID  
YANGI QONUN LOYIHASI  
KECHIKTIRILMAYDI 4 s

TASHABBUS



SHERZODXON  
QUDRATXO‘JA O‘Z

## «KOMANDA»SINI

EKOTARG‘INLARGA  
JALB ETMOQ

HUUDLARDA

«ENDI MASALA  
TO‘LA HAL  
BO‘LMAGUNICHA  
TINCHIMAYMIZ») 7 s



ISSN 2010-1114

MILLIY QADRIYATLARIMIZNI, TILIMIZ,  
URF-ODAT VA AN'ANALARIMIZNI QADRLAYOTGAN, XALQIMIZ  
MANFAATINI HAR NARSADAN USTUN QO'YAYOTGAN NOMZOD –

# MAQSADIMIZ O'ZBEKISTON XALQINING



Shu kunlarda Prezidentlikka nomzodlar targ'iboti qizg'in pallaga kirdi. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar asosan hududlarda bo'lib, yurtdoshlarimizni o'z saylovoldi dasturlarida belgilangan vazifalar bilan tanishtirmoqdalar. Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tomonidan ko'rsatilgan hamda «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan nomzod Shavkat Mirziyoyev ham o'tgan hafta Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm, Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari hamda kuni kecha buxorolik saylovchilar bilan uchrashdi. Ochiq va oshkora o'tgan muloqotlarda asosiy e'tibor barcha zamonlarda ustuvor bo'lgan masala – ta'lim-tarbiyaga, shuningdek, hududlar aholisini qiynayotgan hayotiy muammolar va ularning yechimiga qaratilganini ta'kidlash joiz.

Ayniqsa, Shavkat Mirziyoyevning qoraqalpog'istonlik saylovchilar bilan uchrashuvi qizg'in o'tganini, ochiq muloqotlar payti o'tgan yillardagi natijalar qayta-qayta tahlil etilganini aytish joiz. Xususan, nomzod respublikada 51 ming oilaning uy-joy sharoiti yaxshilangani, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 71 foizga yetgani va Orol dengizining qurigan hududi o'rmda 1 million 800 ming gektar yashil o'rmonzor barpo etilganini ta'kidladi. Hududda ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlar ham salmoqli natijalar bera boshladi. Jumladan, bog'chalar qamrovi 28 foizdan 81 foizga, bog'chalar soni esa 317 tadan 1 ming 600 taga ko'paydi. 172 ta maktab mukammal ta'mirlangan bo'lsa, 104 ta maktabda qo'shimcha binolar barpo etilgani hisobiga, 118 mingta yangi o'quvchi o'rni yaratildi. Oliygo'harlari soni ham 2 barobar ko'payib, 12 taga yetdi. Eng muhimi, qabullar soni 3,5 martaga oshib, qamrov 19 foizdan 46 foizga o'sdi. Hozir bu yerda ertamiz egalari bo'lgan 58 ming talaba tahsil olmoqda. Tadbirda qayd etilganidek, yaqin yillar ichida Qoraqalpog'istonda yana 160 ta yangi bog'cha quriladi va ta'mirlanadi, 2 mingta xususiy bog'cha tashkil etiladi. Kelgusi yetti yilda qo'shimcha 100 ming yangi o'quvchi o'rni yaratiladi. Bunda 30 ta yangi maktab va 150 ta maktab uchun qo'shimcha bino quriladi, 350 tasi esa ta'mirlanadi. Ixtisoslashgan maktablar soni esa, 2 karra oshirilib, 32 taga yetkaziladi. Natijada, Qoraqalpog'istondagi o'rta maktablarda 30-35 nafardan ortiq bola o'qiydigan sinflar umuman qolmaydi. Nomzodning «Biz 1 – 4-sinf o'quvchilariga bepul ovqat

”

«BIZ 1 – 4-SINF O'QUVCHILARIGA BEPUL OVQAT BERISHNI QORAQALPOG'ISTONDAN BOSHLAGAN EDIK. ENDI OLIS VA CHEKKA OVULLARDAGI BOLAJONLARIMIZNING MAKTABGA BORISHI UCHUN AVTOBUS QATNOVINI HAM BIRINCHI BO'LIB SHU ZAMINDAN BOSHLAYMIZ»


berishni Qoraqalpog'istondan boshlagan edik. Endi olis va chekka ovullardagi bolajonlarimizning maktabga borishi uchun avtobus qatnovini ham birinchi bo'lib shu zamindan boshlaymiz», – degan ta'kid nafaqat qoraqalpog'istonliklar, balki jonajon yurtimizdagi barcha ota-onalarni quvontirdi. Uchrashuvda ta'lim sohasining asosiy tayanchi bo'lgan muallim va murabbiylar, oliygo'har professor-o'qituvchilarining mashaqqatli mehnati bundan buyon ham munosib rag'batlantirib borilishi ta'kidlandi. Yangi o'quv yilidan boshlab esa, oliygo'har o'qiyotgan xotin-qizlar uchun, kim to'lashidan qat'i nazar, kontrakt to'lovi daromad solig'idan ozod qilinadi. Hozir ushbu imtiyoz farzandi va turmush o'rtog'i uchun kontrakt to'laganlarigagina qo'llanilyapti, xolos. 13-iyun kuni ana shunday jonli muloqot Xiva shahrida o'tdi. O'zining saylovoldi dasturidagi beshta strategik maqsadni e'lon qilgan Shavkat Mirziyoyev birinchi maqsad sifatida har bir insonga o'z salohiyatini ro'yog'ba

chiqarish uchun munosib sharoit yaratishni asosiy vazifa sifatida belgilab olganini ta'kidladi. Ikkinchi maqsad – odamlarni hayotdan rozi qilish uchun barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Uchinchi maqsad – suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish. To'rtinchi maqsad – qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. Beshinchi maqsad esa Yangi O'zbekistonni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirishdan iboratdir. Nomzod, shuningdek, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun alohida yetti yillik dastur qabul qilinib, unga zarur mablag' yo'naltirilishini ma'lum qildi. Uchrashuvda xuddi Qoraqalpog'istondagi uchrashuvda bo'lganidek, keyingi yillarda Xorazm viloyatidagi yangilanish va o'zgarishlar tahlil etildi, qo'lga kiritilgan natijalar bilan birga ustuvor vazifalarga e'tibor qaratildi. Xususan, nomzod Xorazmdagi barcha bog'cha va maktablarning filtrlangan ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanishini, 2030-yilga

qadar maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyoj to'liq qoplanib, qamrov hozirgi 79 foizdan 100 foizga yetkazilishini ta'kidladi. – Shu maqsadda, qariyb 2 trillion so'm mablag' hisobiga 500 ga yaqin yangi bog'chalar tashkil etiladi, – dedi nomzod. Kelgusi yetti yilda zamonaviy maktablar barpo etish, mavjudlarining quvvatini oshirish hisobiga qo'shimcha 90 ming o'quvchi o'rni yaratiladi. Natijada, viloyatda o'quvchisi 30 nafardan ko'p bo'lgan sinflar qolmaydi. Uchrashuvda, shuningdek, bog'chalarda kompyuter sinflarini tashkil qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilariga planshet tarqatish Xorazmdan boshlanishi ham ma'lum qilindi. – Xorazmning «tashrif qog'ozi» IT bo'ladi. Avvalo, «maktab – oliygo'har – IT kompaniyasi»dan iborat yaxlit IT ta'lim va xizmatlar zanjiri yaratiladi. Buning uchun, viloyatda yetti yilga mo'ljallangan, raqamlashtirish sohasida «Muhammad al-Xorazmiy vorislari» deb nomlangan loyihaga start beriladi. Biz bog'chalarda kompyuter sinflarini tashkil qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilariga planshet tarqatishni Xorazmdan boshlaymiz. Birinchi bosqichda viloyatdagi 543 ta maktabdan 110 tasi tanlab olinib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga «noutbuk» beriladi. Yuqori sinflarda dasturlash, veb-dizayn kabi sohalar kasb sifatida o'qitiladi, – deya ta'kidladi nomzod. Ta'lim va tarbiyaga munosabat, sohadagi o'zgarishlar tahlilig vadiy viloyatlaridagi saylovchilar bilan uchrashuvlarda ham birlamchi e'tibor qaratildi. Aholisi nisbatan zich hisoblangan Andijondagi uchrashuvda esa yana bir ijtimoiy soha – tibbiyot tizimi muloqotlar markazida bo'ldi, deyish mumkin.

## XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR ROZILIGIGA ERISHISH

Jumladan, tadbirida kelgusi yetti yilda viloyatning ko'plab tuman va shaharlarida 700 ta yangi poliklinika tashkil etilishi natijasida 3 million aholi uchun birlamchi tibbiy xizmatlar yanada yaqinlashishi ta'kidlandi. Shuningdek, birlamchi bo'g'indagi barcha oilaviy shifokor punktlari, poliklinika va shifoxonalar ta'mirlanib, filtrlangan ichimlik suvi va issiq suv bilan to'liq ta'minlanadi. Gemodializ bo'limlari soni esa 2 karra ko'paytirilib, 200 taga yetkaziladi. Bu bilan barcha tuman va shaharlar mazkur xizmat bilan qamrab olinadi. Shu bilan birga, har yili 1 million aholi jigar sirroziga olib keluvchi gepatit «B» va «S» bo'yicha skrining tekshiruvidan o'tkaziladi, gepatit «S»ga chalingan bemorlar to'liq davlat hisobidan davolanadi. Barcha tuman va shaharlarda xususiy sheriklik asosida MRT va MSKT yo'lga qo'yiladi. Buning uchun, 100 million dollar investitsiya yo'naltiriladi. Shavkat Mirziyoyev Andijonda ham ta'limga oid ishlarga alohida to'xtalib, kelgusi yillarda bog'cha yetarli bo'lmagan 131 ta mahallada 1,5 mingta davlat va xususiy bog'chalar barpo etilishini, 210 ta bog'chani quvvatlari oshirilishini hamda qo'shimcha 90 ming bolajonlarimiz uchun maktabgacha ta'lim imkoniyati yaratilib, qamrov 100 foizga yetkazilishini ma'lum qildi. Ilmga chanqoq yoshlar uchun 6 ta yangi oliyog' tashkil etilib, ularda 30 dan ortiq yangi yo'nalishlar ochiladi. Bular hisobidan, oliy ta'limga qamrov hozirgi 30 foizdan 50 foizga yetkaziladi. «Niyatim – O'zbekistondagi barcha qizlar bilimli va o'qimishli bo'lishi kerak», – dedi Sh.Mirziyoyev. Nomzodning farg'onalik saylovchilar bilan uchrashuvida ham ta'lim sohasidagi o'zgarishlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Xususan, Farg'ona viloyatida maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyoj 100 foizga qoplanadi. Buning uchun 2 mingta yangi davlat va xususiy bog'chalar tashkil etiladi. 2030-yilga qadar, zamonaviy maktablar barpo etish, mavjudlarining quvvatini oshirish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash hisobiga qo'shimcha 125 ming o'quvchi o'rni tashkil etiladi. Natijada, mavjud quvvatlarga nisbatan 2 baravar ko'p o'quvchiga ega



**ILG'OR TEKNOLOGIYALARNI  
BILADIGAN, DARS BERISH  
VA O'QUVCHILAR BILIMINI  
BAHOLASHDA YANGI  
YONDASHADIGAN MUALLIMLAR  
QO'LLAB-QUVVATLANADI. ENDI  
MUALLIMLARNING NAFAQAT BILIMI,  
BALKI MALAKA VA MAHORATINI HAM  
BAHOLAB, MALAKA SERTIFIKATINI  
BERISH TIZIMI JORIY ETILADI. MALAKA  
SERTIFIKATINI OLGAN O'QITUVCHIGA  
70 FOIZ QO'SHIMCHA HAQ TO'LANADI  
(HOZIRDA ENG YUQORI USTAMA 40  
FOIZ). UMUMAN, KELGUSI YETTI YILDA  
MUALLIMLARNING OYLIK MAOSHI 2  
KARRA OSHIRILADI.**

bo'lgan 175 ta maktab yuklamasi kamaytiriladi. Shu bilan birga, viloyatdagi 350 ta maktab to'liq ta'mirlanadi, barcha maktablar zamonaviy kompyuter sinflari bilan jihozlanadi. Xabaringiz bor, yaqinda Qo'qondagi buyum bozorida yong'in sodir bo'lib, tadbirkorlar katta miqdorda zarar ko'rdilar. Nomzod ushbu masalga ham to'xtalib, qo'qonlik tadbirkorlar xotirjam bo'lishini, hech kim o'z holiga tashlab qo'yilmasligini, bozor uzog'i bilan bir oyda to'liq tiklab berilishini va kim qaysi do'konda faoliyat yuritgan bo'lsa, o'sha yerda tadbirkorligini davom ettirishini aytdi. – Yong'indan zarar ko'rgan barcha tadbirkorlarning kredit va soliq to'lovlari muddati kechiktiriladi. Ularning qaytadan «oyoqqa turib olishlari» uchun aylanma mablag' uchun imtiyozli kreditlar ajratiladi. Yong'in oqibatida bozorga tutash hududlarda zarar ko'rgan aholi xonadonlari ham to'liq ta'mirlab beriladi, – dedi

Shavkat Mirziyoyev. 16-iyun kuni namanganlik saylovchilar bilan uchrashuvda esa tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning muqobil tizimlari, jumladan, Islom moliyaviy xizmatlariga keng yo'l ochib berish Namangandan boshlanishi e'lon qilindi. «Bundan buyon ham, tadbirkorlarning o'z faoliyatini dadi kengaytirishlari uchun biznesga noqonuniy aralashuvlarga to'liq barham berish va soliq tizimini yanada soddalashtirish islohotlarimizning asosiy tamoyili bo'lib qoladi», – dedi Shavkat Mirziyoyev. Prezidentlikka nomzod Namanganda ham ta'limga oid rejalarga alohida to'xtaldi: – 2030-yilga qadar Namanganning birorta mahallasida bog'cha muammosi qolmaydi, – dedi Mirziyoyev. – Buning uchun 235 ta yangi bog'cha quriladi va ta'mirlanadi, 1 mingdan ziyod xususiy bog'cha tashkil qilinadi.

Kelgusi yetti yilda qo'shimcha 100 ming yangi o'quvchi o'rni yaratiladi. Bunda 28 ta yangi maktab va 232 ta maktab uchun qo'shimcha bino quriladi, 268 tasi ta'mirlanadi. Natijada Namangandagi maktablarda 30 nafardan ortiq bola o'qiydigan sinflar umuman bo'lmaydi. Viloyatdagi 11 ta maktab xalqaro standartlar asosida ixtisoslashgan maktabga aylantiriladi. Kecha Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyevning buxorolik saylovchilar bilan ham uchrashuvi bo'lib o'tdi. Nomzod dastlab aholiga qulay turmush sharoiti yaratishga oid rejalarga, xususan, viloyat aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha 2030-yilga qadar amalga oshiriladigan ishlarga to'xtaldi. Murakkab operatsiyaga muhtoj, tug'ma yurak nuqsoni bor 1 ming nafardan ortiq bolalarni davlat hisobidan davolash tashkil etilishi bu ishlarga birgina Buxoro uchun yiliga 30 milliard so'm ajratilishi, shuningdek, viloyatda Xalqaro xalq tabobati markazi va Farmasevtika klasteri tashkil qilinishi ma'lum qilindi. Nomzod viloyatda maktab ta'lim bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarga to'xtalar ekan, 2030-yilga qadar yangi maktablar barpo etish va bor quvvatlarni oshirish hisobiga qo'shimcha 2,5 million o'quvchi o'rni yaratish reja qilinganini e'lon qildi va bunda joriy yilda «Yiliga 500 ming o'quvchi o'rni» dasturi boshlanishini ta'kidledi. Buning uchun, yangi – Maktab infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etiladi va unga har yili 1 milliard dollardan mablag' ajratiladi. Mazkur Jamg'arma mablag'lari hisobidan esa 170 ta yangi maktab quriladi, 3 ming 210 tasi rekonstruksiya qilinadi. Natijada qo'shimcha 1 million 400 ming o'quvchi o'rni paydo bo'ladi.

Xususiy maktablarga 1-sinfga borgan bolaning ota-onasiga bir yil davomida maktab uchun oylik to'lovining 450 ming so'mi kompensatsiya qilib beriladi. Tadbirkorlarga xususiy maktab tashkil etish uchun olinadigan kreditning 14 foizdan ortgan qismi qoplab beriladi. Xususiy maktablarda muallimlar uchun talablar davlat maktablari bilan bir xil bo'ladi. Shu orqali, maktablarda o'quvchilar soni 35 nafardan ko'p bo'lgan birorta sinf qolmaydi. Umuman, hozirgi vaqtda xususiy maktablarda mavjud 85 ming o'quvchi o'rni 2030-yilga qadar kamida 400 mingga yetkazish bo'yicha barcha sharoitlar yaratib beriladi. Ilg'or texnologiyalarni biladigan, dars berish va o'quvchilar bilimni baholashda yangi yondashadigan muallimlar qo'llab-quvvatlanadi. Endi muallimlarning nafaqat bilimi, balki malaka va mahoratini ham baholab, malaka sertifikatini berish tizimi joriy etiladi. Malaka sertifikatini olgan o'qituvchiga 70 foiz qo'shimcha haq to'lanadi (hozirda eng yuqori ustama 40 foiz). – Umuman, kelgusi yetti yilda muallimlarning oylik maoshi 2 karra oshiriladi», – dedi nomzod. Muallimlarning mashaqqatli mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida ularning ko'p yillik ish staji uchun ilk bor ustama haqi to'lash tizimi joriy etiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining haftalik yuklamasi 18 soatdan 16 soatga, yuqori sinf o'qituvchilariniki 20 soatdan 18 soatga tushiriladi. Bu orqali, to'liq stavkada ishlamayotgan jami 150 ming nafar muallimning oyligi o'rtacha 30 foizga oshiriladi. O'qituvchilarga har yili sihatgohlarda sog'liqlarini tiklashlari uchun imtiyozli yo'llanmalar beriladi. Shuningdek, har yili 1 ming nafar muallim stajirovka o'tash uchun xorijga yuboriladi. Uchrashuvlarda partiya vakillari, mahalla faollari ham so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovda Shavkat Mirziyoyev nomzodini qo'llab-quvvatlashlarini ta'kidladilar va boshqalarni ham shunga chaqirdilar. Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi uchrashuvlari davom etmoqda.

# BAYROG'IMIZGA OID YANGI QONUN LOYIHASI KECHIKTIRILMAYDI



O'zbekiston dengiz yo'liga ikki davlat orqali chiqadigan dunyoning ikki mamlakatidan biri bo'lgani uchun ham bu mintaqada transport-kommunikatsiya tarmoqlarini jadal rivojlantirishga katta ehtiyoj bor... O'zbekistonning keyingi yillardagi ochiq va pragmatik siyosati tufayli ushbu yo'nalishda ham muayyan ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, dunyo bozoriga chiqishning muqobil yo'llarini topish borasida dadil harakatlar boshlandi. Fors ko'rfazidagi Eronga qarashli Bandar-Abbos, Chobahor portlari O'zbekiston uchun ochiq dengizga chiqish uchun eng yaqin, qulay va xavfsiz yo'l ekanini hisobga olsak, O'zbekistonning Eron Islom Respublikasi bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Eron Islom Respublikasiga tashrifi tafsilotlari tahlil etildi. Markaziy kengash raisi Alisher Qodirov bu masalada fikr bildirib, ikki davlat rasmiy vakillari o'rtasida o'tkazilgan muzokaralarda ushbu masala batafsil muhokama qilinganini ta'kidladi.

davom ettirilib, ortiqcha sud bosqichlarini bekor qilish maqsadida sudlar faoliyatida «bir sud – bir instansiya» tamoyili joriy etildi. Sud ishlarini qayta ko'rish tartibi o'zgartirilib, tumanlararo, tuman, shahar sudlarda ishlar birinchi instansiyada, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda ishlarini apellatsiya tartibida, Oliy suda ishlar kassatsiya tartibida ko'rib chiqilishi belgilandi. Ammo shunga qaramay keyingi yillarda bu borada bir qator kamchiliklar ham aniqlanmoqda.

Jumladan, Oliy sudning vakolatlari kengaytirilishi evaziga ishlarini hal etishda viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar xizmatidan samarali foydalanish imkoniyati mavjud emasligi oqibatida Oliy suda ishlarini ko'rish hajmi keskin ortib ketdi. Misol uchun, Oliy sudning Fuqarolik ishlarini ko'rish sudlov hay'ati tomonidan 2020-yilda 640 ta ish ko'rib chiqilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 3 377 tani, 2022-yilda esa 3 601 tani tashkil etgan.

Ishlarni ko'rish hajmi ortishi barobarida sudyalarning ish hajmi va yuklamasi ham oshib bormoqda. Misol uchun, 2020-yilda o'rtacha oylik ish hajmi 2,7 ta, 2021-yilda 14,1 ta, 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 15,8 tani tashkil etdi.

Sudyalarning ish hajmi va ish yuklamasining normadan ortishi ishlarining ko'rish sifatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayapti. Qolaversa, ish hajmining ortishi fuqarolarning ortiqcha sarf-xarajat qilishiga, sudma-sud sarson bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Va, bu tabiiy ravishda fuqarolarda sudga nisbatan norozio kayfiyat uyg'onishiga olib kelyapti.

Shu bois, mazkur kamchiliklarni hal qilish maqsadida ushbu qonun loyihasi ishlab chiqildi. Ya'ni, qonun loyihasi sud qarorlarini qayta ko'rish bosqichlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, Fuqarolik protsessual kodeksiga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Jumladan, ishlar ko'rilishini o'ta markazlashtirilishiga barham berish, fuqarolarning olis hududlardan sudga kelib sarson bo'lishini oldini olish maqsadida viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda ishlarini apellatsiya yoki kassatsiya va taftish tartibida ko'rish bosqichlari, Oliy suda ishlarini taftish tartibida va Oliy sud Rayosatida qayta ko'rib chiqish amaliyoti joriy etilmoqda. Shuningdek, yuqori instansiya sudlari tomonidan quyi instansiya sudlarining qarorini bekor qilgan holda yangidan ko'rish uchun yana quyi sudga yuborish tartibi

bekor qilinmoqda. Har bir sud instansiyasiga esa ish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish majburiyati yuklanmoqda.

Yig'ilishda bu boradagi xorijiy tajribaga ham e'tibor qaratildi. Masalan, Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Bolgariya sud qarorlari ustidan shikoyat protest kiritishda ortiqcha to'siqlar mavjud emas. Turkmaniston, Tojikistonda sud qarorlarini qayta ko'rishning 4 ta instansiyasi mavjud. Har 100 ming aholiga Germaniyada 24 nafar sudy to'g'ri kelsa, bu ko'rsatkich Rossiyada 18, Qozog'istonda 16, Qirg'izistonda 7,3, Tojikistonda 5 nafar, O'zbekistonda esa 3,7 nafarni tashkil etmoqda.

Fraksiya a'zosi Jahongir Shirinov taklif etilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar odil sudlov sifatini yaxshilash, sudyalarning ish hajmi va ish yuklamasini kamaytirishga, shuningdek, fuqarolarga yaxshi qulayliklar yaratilishiga erishilayotgan ta'kidlab, deputatlarni qonun loyihasini birinchi o'qishda qo'llab-quvvatlashga chaqirdi. Shundan keyin deputatlar tomonidan loyiha ma'qullandi.

«O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi ham deputatlar tomonidan qizg'in muhokama qilindi.

Ma'lumki, «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonunda Davlat bayrog'iga nisbatan hurmat-ehtiromni ta'minlagan holda faqat umummilliy bayramlar va tantanali tadbirlar vaqtida ko'tarilishi mumkinligi, shuningdek, Davlat bayrog'i tasviri tushirilgan belgilardan tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emasligi belgilangan.

Ammo davlat bayrog'idan jismoniy va yuridik shaxslarning foydalanishi qonunchilikda to'liq tartibga solinmaganligi sababli amalda ushbu harakatlar qonunchilikni buzish deb hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 203<sup>1</sup>-moddasiga asosan 990 ming so'mdan 2,3 mln. so'mgacha jarima solishga olib kelmoqda.

Yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash hamda xalqaro maydonlarda mamlakatimiz obro'-e'tiborini oshirishda Davlat bayrog'i muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, endi ushbu qonun loyihasi bilan Davlat bayrog'idan foydalanish imkoniyati kengaytirilmoqda.

Xususan, endi Davlat bayrog'idan

sport musobaqalarida, ommaviy jismoniy tarbiya va madaniy tadbirlarda, oilaviy bayramlar, xotiraviy sanalarni bayram qilishda bayrog'imizga nisbatan zarur hurmatni ta'minlagan holda foydalanilishga ruxsat berilmoqda. Davlat ramziga zarur hurmat bilan muomala qilgan holda undan va uning tasviri tushirilgan belgilardan jamoat joylari va binolarda, yashash yoki ish joylarida hamda ularga tutash bo'lgan hududlarda, hatto transport vositalarining salonida foydalanish mumkinligi belgilanyapti. Shuningdek, Davlat bayrog'iga nisbatan hurmatsizlik bilan munosabatda bo'linishiga yo'l qo'yilmaydigan hollar aniq belgilab qo'yilmoqda.

Ta'kidlanganidek, Davlat bayrog'i masalasi «Milliy tiklanish» partiyasi uchun doimo ustuvor masala bo'lib kelgan. Partiya fuqarolarga ham Davlat bayrog'idan erkin foydalanish huquqini berish g'oyasini avvaldan ilgari surib kelgan va bu bo'yicha o'z takliflarini shakllantirgan.

Shundan kelib chiqib, fraksiya a'zolari qonun loyihasidagi Davlat bayrog'idan keng foydalanish huquqini beruvchi normalarni yanada takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini berdilar.

Jumladan, Bekmirza Eshmurzayev O'zbekiston bayrog'ining ranglari qanday bo'lishi amaldagi qonunda izohlangan bo'lsa-da, bugungi kunga kelib ushbu ranglar raqamlanmagani sababli turlicha talqin qilinayotgani va natijada davlat bayrog'ining ranglari o'zgarib ketayotganiga e'tibor qaratdi.

Shundan kelib chiqib, Davlatimiz bayrog'i ranglari kodlashtirilishi kerak va bunday amaliyot dunyo tajribasida bor, dedi B. Eshmurzayev.

Qonun tashabbuskorlari bu taklif to'g'riligini e'tirof etgan holda, uni qonun loyihasida aks ettirish qo'shimcha moliyaviy xarajatlarni talab qilinishini va bu fuqarolarga bayroqdan keng foydalanish huquqini berayotgan loyiha qabul qilinishini yana ortga surishi mumkinligini ta'kidladilar.

Fraksiya a'zolari jamoatchilik anchadan buyon kutayotgan o'zgarishlarni qabul qilishni kechiktirib bo'lmasligini e'tirof etgan holda taklif qilingan qonun loyihasini ma'qulladilar. Ranglarni raqamlashtirish bo'yicha esa yaqin oylarda alohida qonun loyihasini tashabbus qilishga kelishib otiladi.

**Hamdam NIYOZOV,**  
partiya Markaziy kengashi  
bo'lim boshlig'i

« Turkmaniston, Tojikistonda sud qarorlarini qayta ko'rishning 4 ta instansiyasi mavjud. Har 100 ming aholiga Germaniyada 24 nafar sudy to'g'ri kelsa, bu ko'rsatkich Rossiyada 18, Qozog'istonda 16, Qirg'izistonda 7,3, Tojikistonda 5 nafar, O'zbekistonda esa 3,7 nafarni tashkil etmoqda.

– Aynan transport-logistika yo'nalishida bir qator samarali kelishuvlarga erishilgani O'zbekiston uchun juda katta ahamiyatga ega, – dedi fraksiya rahbari.

Shundan so'ng, deputatlar «Sud qarorlarining qonuniyligi, asoslilik va adolatliligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasini muhokama qildilar.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda odil sudlovni ta'minlash borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yagona sud amaliyotini ta'minlash maqsadida Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi. Birinchi marta Oliy sud ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati va hududlarda tumanlararo ma'muriy sudlar tashkil etildi. Tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini suda himoya qilish kafolatini yanada kuchaytirish maqsadida iqtisodiy sudlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ushbu jarayondagi islohotlar



## O'ZBEKISTON MINTAQA MAMLAKATLARI UCHUN NAMUNA BO'LYAPTI

Ostonada Qozog'iston raisligida o'tgan Markaziy Osiyo yetakchi ayollar muloqoti yig'ilishi doirasida Qozog'iston Parlamenti Senati Raisi Maulen Ashimbayev bilan uchrashuvda parlamentlararo aloqalarning bugungi holati va istiqbollari, ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash masalasida muloqot qildik. E'tiborlisi, bugun O'zbekistonning turli sohalaridagi natijalari mintaqa mamlakatlari uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, Maulen Ashimbayevning

ta'kidlashicha, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda O'zbekistonning muvaffaqiyatli amaliy tajribasi asosida hozirda Qozog'iston Parlamenti huzurida ham BRM bo'yicha maxsus komissiya tashkil etilgan. Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Raisi Yerlan Koshanov bilan bo'lib o'tgan muloqotda esa o'zaro hamkorlikning muhim yo'nalishi – izchillikka asoslangan parlamentlararo munosabatlarni muhokama etdik. Xulosa shundayki, Parlamentlararo hamkorlik

kengashi hamda Qozog'iston parlamenti Majlisi bilan hamkorlik bo'yicha parlament guruhi kabi o'zaro aloqa mexanizmlarini yanada faollashtirishimiz zarur. Qozog'iston parlamenti palatalari rahbarlari bilan kechgan uchrashuvlar yakunida qo'shma tashabbuslarni ilgari surish amaliyotini davom ettirish, xalqaro parlament tuzilmalari, hamda qator boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida davlatlarimiz bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlashiga kelishib oldik.

@tanzilanarbayeva

BU YIL

730 000-DAN

ORTIQ BOLA 1-SINFGA  
QABUL QILINADI

Maktablarda birinchi sinfga qabul qilish jarayoni boshlandi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi boshlig'i Laylo Rustamova tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, ota-onalarga qulaylik yaratish va qabul jarayonlarini tartibli tashkil etish maqsadida 1-sinfga qabul 2 bosqichda amalga oshiriladi.

Mutaxassisning ta'kidlashicha, 1-bosqich 20-iyundan 31-iyulga qadar maktablarga mahalliy hokimlik qarorlari bilan birlashtirilgan mikrohudud doirasida amalga oshiriladi. 2-bosqich 1 – 15-avgust kunlari mikrohududdan tashqari qo'shimcha qabul jarayonlari amalga oshiriladi. Bunda, umumta'lim maktablarining o'quvchi o'rnini, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlangani, sinf xonalarining yetarli ekanligi inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

1-sinfga qabul jarayonlari elektron shaklda davlat xizmatlari orqali amalga oshiriladi. Bunda, ota-onalar 20-iyun soat 12:00 dan boshlab my.maktab.uz elektron platformasi orqali ro'yxatdan o'tib, ariza topshirishlari mumkin. Qolgan tumanlarda an'anaviy shaklda, ya'ni bevosita maktab tomonidan qabul qilinadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq, bolalar 7 yoshga to'lganida maktabga qabul qilinadi. Joriy yil 2016-yil 1-yanvardan 31-dekabr gacha tug'ilgan bolalar birinchi sinf o'quvchisi bo'ladi.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash lozimki, 2023 – 2024-o'quv yilida respublikamiz bo'yicha 730 mingdan ortiq bola 1-sinfga qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Muhayyo TOSHQORAYEVA,  
O'ZA

Munosabat

## YANGI O'ZBEKISTONGA HAMOHANG O'ZGARISHLAR



Jahongir ZIYAYEV,  
xalq deputatlari Mirzo  
Ulug'bek tuman Kengashi  
deputati

Nihoyat, "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasidan so'ng shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yig'ilishlarida birinchi o'qishda muhokama qilinmoqda.

Loyihani diqqat bilan o'qib, xalqimiz kutgan o'zgarishlar kiritilayotganidan xursand bo'ldim. Qayd etish joizki, endi umummilliy bayramlar, sport musobaqalari, jismoniy tarbiya tadbirlari, madaniy va ommaviy tadbirlarda, Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytlarida, hatto oilaviy bayramlar, yashash yoki ish joylarida, transport vositalari salonida ham foydalanishimiz mumkin bo'ladi.

Ammo bayrog'imiz tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni o'tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emas.

Bayrog'imizga hurmatsiz munosabatda bo'lganlarga nisbatan esa ta'sir choralarini yanada kuchaytirilayotganini qo'llab-quvvatlayman. Ya'ni, bayroq va uning tasviri tushirilgan belgilardan yirtilgan, ifloslangan, teshilgan, rangi oqargan holda, yoping'ich sifatida, stol, o'rindiqlik, stullarga to'shshga yoki tasvirlashga, qoplama sifatida foydalanish taqiqlanadi. Oyoq ostiga to'shsh yoki tasvirlash, kiyim-kechak, dastro'mol yoki ko'rpato'shak sifatida foydalanish, bir marta ishlatiladigan va tashlab yuborishga mo'ljallangan buyumlarga bosib chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

Taklifim: endi nafaqat davlatimiz bayrog'i qabul qilingan sana – 18-noyabrni, balki istiqlolimiz asosi "Mustaqillik deklaratsiyasi", Milliy qadriyatlarimiz gultjo'i – Ona tilimizga Davlat tili maqomi berilgan kun, suverenitetimiz ramzlari – gerb, madhiyamiz qabul qilingan sanalarni ham xalqimiz dam oladigan bayramlar qatoriga qo'shish kerak.

Buni davlatlar chegaralari kuchaytirilib, xavfsizlikka xatarlar oshayotgan bir sharoitda muhim, deb hisoblayman. Bu bilan xalqimizning ushbu sanalarga bo'lgan munosabati ham keskin o'zgaradi, ayniqsa, yoshlarimizning Vatanparvarligini kuchaytirishga xizmat qiladi. To'g'ri, ko'pchilik bu sanalarni eslamasligi, hatto bilmasligi ham haqiqat. Shu ma'noda, ushbu taklifni muhim deb hisoblayman.

SHERZODXON QUDRATXO'JA O'Z

# «KOMANDA» SINI EKOTARG'IBOTGA JALB ETMOQCHI



**K**uni kecha tanikli jurnalist, Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori Sherzodxon Qudratxo'ja Toshkent shahrining markaziy ko'chalaridan birida suv isrofgarchiligiga yo'l qo'yilayotganini ko'rib, holatga munosabat bildirdi. — Ochig'i, o'sha kuni achinarli holatga bildirgan munosabatimga 112000 odam befarq emasligini bildiradi deb o'ylamagandim, — deb yozadi Sherzodxon

Qudratxo'ja. — Bu jiddiy raqam ko'p omillardan darak beradi. Hatto Toshkent shahar hokimi Shavkat Umurzoqov ham shaxsiyga yozib, minnatdorlik bildirdi va Xalq nazorati muhim ekanini e'tirof etdi. Ekologiya vaziri Aziz Abduhakimov va Iqtisodiyot va moliya vaziri Sherzod Kudbiyevlar ham fikrlarimga befarq bo'lishmadi. Jami befarq bo'lmaganlar bitta katta tuman ahlidek — 112 ming kishi. Rahmat Sizlarga! Demak biz to'g'ri yo'ldamiz.

Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q deyishgani bekor gap emas. Suv bizda deyarli tekin bo'lgani uchun ham uni xor qilyapmiz. Bepul narsaning qadri shunaqa, rosti.

Suvga, suv resurslariga bo'lgan munosabatimizni batamom o'zgartirish vaqti keldi! Kechikmoqdamiz! Kechagi bo'ron va shamollar, yomg'irlar deyarli yo'qligi, haroratning 5-6 gradusga oshishi natijasida muzliklarning 15-20 foizi tez eriyotgani, bir asr oldin aholisi 10

milliondan kam bo'lgan Markaziy Osiyo aholisining 100 millionga qarab ketayotgan bir paytda suv ko'paymayotgani aniqku!!! Nahotki, biz nodonlarcha buni sezmayapmiz?

Meni zimmamga yuklatilgan vazifalar yetarli, buning uchun Allohga shukur. Ammo endi yana bir vazifani ixtiyoriy ravishda zimmamga olmoqchiman. Bu ekologiya faoli va targ'ibotchiligidir. O'z komandamni ham bunga jalb etaman.

Islahot

## DAVLAT BAYROG'IDAN TRANSPORT VOSITALARINING SALONIDA FOYDALANISH MUMKIN

**D**avlat bayrog'idan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni yanada soddalashtirish, undan qonunga qat'iy rioya qilgan holda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bir guruh deputatlar tomonidan «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan edi.

Mazkur qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida birinchi o'qishida ko'rib chiqildi.

Majlisda qayd etilganidek, 2023-yilning 1 – 16-iyun kunlari jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan ushbu qonun loyihasi bo'yicha 1,5 mingdan ortiq munosabat va takliflar kelib tushdi. Ularning 673 tasi Qonunchilik palatasining [parliament.gov.uz](http://parliament.gov.uz) saytiga, 530 tasi [regulation.gov.uz](http://regulation.gov.uz) portaliga, 154 tasi [fan@parliament.gov.uz](mailto:fan@parliament.gov.uz) elektron pochtasiga kelib tushgan hamda 150 nafar yoshlar yetakchilari tomonidan jamoaviy taklif yuborilgan.

Qonun loyihasi bilan Davlat bayrog'idan sport musobaqalarida, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarida, madaniy va o'zga ommaviy tadbirlarda, oilaviy bayramlarda, xotiraviy sanalarni bayram qilishda hamda boshqa hollarda ham bayrog'imizga

nisbatan hurmatni saqlagan holda foydalanishga ruxsat berish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, davlat ramziga zarur hurmat bilan muomala qilgan holda undan va uning tasviri tushirilgan belgilardan jamoat joylari va binolarda, yashash yoki ish joylarida hamda ularga tutash bo'lgan hududlarda, transport vositalarining salonida foydalanish mumkinligi belgilanmoqda. Davlat organlarining ramzlarida (bayroq, geraldik belgi) va ularning rasmiy veb-saytlarida Davlat bayrog'ining tasviri tushirilgan belgilardan foydalanishga huquqiy asos o'rnatish hamda Davlat bayrog'i tasvirini ustki kiyimga bezatish maqsadida aks ettirish imkoniyatini yaratish nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, Davlat bayrog'i va uning tasviri tushirilgan belgilardan O'zbekiston Respublikasi vakili

bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan rasmiy xalqaro tadbirlarda foydalanishga, harbiy yoki boshqa davlat xizmatida bo'lgan shaxslar tomonidan kiyim-kechak va farqlovchi nishonlarda qo'llashda hamda xalqaro sport musobaqalari hamda O'zbekiston chempionatlari uchun sport kiyimlarini tayyorlashda foydalanishga ruxsat berish belgilanmoqda.

Shu bilan birga, Davlat bayrog'iga nisbatan hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lishiga yo'l qo'yilmaydigan hollar aniq belgilab berilmoqda.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi kundalik hayotimizda davlatimiz bayrog'idan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, undan faxrlanish hissini oshiradi.

Muhtarama KOMILOVA



# BEFARQLIK

ENG KATTA DUSHMANIMIZ

Internet aksariyat hollarda bizni, ayniqsa, farzandlarimizni tarbiyasizlikka yetaklayotgani yangilik emas. Bu jarayonda yomon xabarlar tez tarqalishi bir muammo bo'lsa, yomon hodisalarning yorug'lik tezligida ommalashib borayotgani ham ijtimoiy tarmoqning buyuk «fazilatlar» dandir.

Afsuski, keyingi vaqtlarda o'z joniga qasd qilgan ayollar, yoshlar haqidagi xabarlar jamoatchilik psixologiyasiga shunchalar yomon ta'sir etmoqdaki, ko'pchilik bunday xabarlar tarqatmaslikni talab eta boshladi. To'g'ri, har qanday jinoyat jamiyatdagi illatlarga qaratilgan ishora. Ular sodir etilganida esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan izchillik bilan o'rganilishi va real holat sababchilari ochib berilishi kerak. Ammo shuni ham tan olaylikki, bunday jinoyatlar ildizi bizning befarqligimizda yonimizdagilarning shu

darajaga tushgunigacha qarab turganimizga borib taqaladi. Ma'lumki, Yaponiyada tushkun kayfiyatdagi insonlarga ruhiy, ma'naviy yordam ko'rsatadigan tashkilotlar haqida ma'lumot beruvchi targ'ibot qo'llanmalarini ko'ngillilar tomonidan tarqatish odatga aylangan. Bizda esa xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari faoliyat yuritishi haqida 10 ta ayoldan bittasi ham xabardor bo'lmasa kerak. Demak, ma'nau, ruhan va jismonan qiynalgan ayollarga manzilli yordamni yanada yaqinlashtirishimiz kerak. Sir emaski, bugun ayollarga

o'zini qadrlashga o'rgatadigan turli xildagi onlayn yoki oflayn kurslar ko'payib boryapti. Psixolog va mutaxassislar ishtirokida ayollar dardiga malham bo'la oladigan bunday pulli darslar sezilarli darajada pulli mijoz yig'ayotgani ham bor gap. Ammo bizni oila, farzandlarga munosabatimizni, og'ir vaziyatlarga tushib qolgudek bo'lsak, qanday yo'l tutish lozimligini o'rgatadigan markazlar yo'q hisobi. Shuning uchun ham Oila va xotin-qizlar qo'mitasi malakali psixologlar bilan hamkorlikda «ko'chma psixologik maslahatxona»lar tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Ular navbati bilan

respublikamizning chekka-chekka hududlarida, mahallalarda depressiyaga tushishga moyil opa-singillarimizga manzilli yordam ko'rsatib, oilaviy noxushliklarning oldini olgan bo'lardilar. «Foydasi bo'lmaydi», «suiqasdlarning oldini olib bo'lmaydi», «odamning ichki olamini uning o'zidan boshqa hech kim tushunmaydi» deya o'tiraversak, hayotiy xatolar, atrofdagilarga befarqligimiz og'ir oqibatlariga yetaklay veradi.


**Umida RAHMONOVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Hududlarda

## «ENDI MASALA TO'LA HAL BO'LMAGUNICHA TINCHIMAYMIZ»

**Y**aqin yillargacha buyrak yetishmovchiligi juda ko'p bemorlar uchun qiyinchilik va ovoragarchiliklarni keltirib chiqarar edi. Gemodializ va nefrologiya xizmati sifati ham mutlaqo talabga javob bermas, xastalikka chalinganlar zarur tibbiy muolaja olish uchun uzoq yo'l bosib, viloyat markazi yoki Toshkent shahriga kelishga majbur bo'lardilar.

Keyingi yillardagina gemodializ xizmati sifati tubdan o'zgardi. 2016-yilgacha bunday xizmat ko'rsatuvchi markazlar 29 ta bo'lsa, bugunga kelib ular soni 65 taga yetkazildi. Uskunalar soni esa 240 tadan qariyb 700 taga ortdi. Olti yil ilgari viloyat markazlarini hisobga olmaganda atigi 2 ta tumanda bo'lgan ushbu xizmat ayni paytda 23 ta tumanda yo'lga qo'yildi. Bir yil oldin Oqoltin tumani tibbiyot bo'limiga ham shunday zamonaviy uskunalar keltirilib, gemodializ xizmati yo'lga qo'yilganidan



nafaqat tuman ahli, butun sirdaryoliklar xursand bo'lgan edi. Lekin afsuski hamon ushbu markaz faoliyatini boshlagani yo'q. Avvaliga uskunalarni o'rnatishda muammo bo'lgan bo'lsa, endi mutaxassislar yo'qligidan shunday xastalikka chalinganlar hamon uzoq yo'l bosishga majbur bo'lishyapti. Tuman ahli murojaatidan so'ng partiyaning Sirdaryo viloyati Kengashi raisi, xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputati Norbobo Soatov tomonidan ushbu masala viloyat Kengashi sessiyasida ko'tarilib, tibbiy

asbob-uskunalar shu yilning yanvariga kelib o'rnatirilgan edi. Endi esa unda ishlaydigan mutaxassislar yo'q. – Aslida katta mablag' evaziga xorijdan keltirilgan zamonaviy uskunalarni o'rnatishdan oldin unda ishlaydigan mutaxassislar tayyorlanishi kerak emasmidi – deydi Norbobo Soatov. – Bunday zamonaviy texnikalarni «Chekka tumanlarga ham o'rnatdik», deya jar solishdan oqoltinliklarga nima naf? Hozir viloyat hokimining mas'ul o'rinbosariga deputatlik so'rovi tayyorlayapman. Endi ushbu

masala hal bo'lmagunicha tinmaymiz. Axir kasallik kutib turmaydiku, bemorlar uchun esa har bir daqiqa g'animat. Haqiqatan ham bemor uchun har daqiqa g'animat. Ayniqsa, buyrak yetishmovchiligi xastaligi bilan og'rigan bemorlar uchun. Barcha hududlarda ham klinikalar yo'qligi, borlarida ham mutaxassislar yetishmasligi natijasida ko'pchilik bemorlar shifoxonaga kasallikning oxirgi bosqichida kelyapti. Shu bois, gemodializ xizmatini rivojlantirish maqsadida Davlat budgetidan

ajratilayotgan mablag'lar miqdori 8 barobargacha ortdi. Ya'ni, 2016-yilda bu sohaga 18 mlrd. so'm yo'naltirilgan bo'lsa, 2022-yilda ajratilayotgan mablag'lar miqdori 145 mlrd. so'mga yetdi. Ammo ajratilayotgan mablag'lar soha mutasaddilarining befarqligi bilan toshdek qotib tursa, bundan kim yutadiyu, kim yutqazadi?

**Abdulaziz TURSUNALIYEV,**  
Sirdaryo viloyati Kengashi raisi o'rinbosari

# Fidoyi ijodkorning «ADABIYOT DUNYOSI»



O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida O'zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos olim, munaqqid va tarjimon Ibrohim G'afurovning "Adabiyot dunyosi" deb nomlangan 8 jildlik kitoblari taqdimoti bo'lib o'tdi. Shu munosabat bilan mazkur oliy o'quv yurtiga yozuvchi va shoirlar, adabiyotshunoslar, ijodkor ziyolilar, talaba-yoshlar taklif etildi.

Taqdimot tadbirida mazkur universitet rektori Sherzodxon Qudratxo'ja, ustoz shoira Sharifa Salimova, taniqli yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad, atoqli adib Nazar Eshonqul, adabiyotshunos olim Bahodir Qobul va boshqalar bugungi kunda yoshlarda kitobxonlik madaniyatini oshirish, bunda zalvorli asarlar, umrini milliy adabiyotimiz ravnaqiga bag'ishlagan ijodkorlarning kitoblari muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi. – Ibrohim G'afurovning har bir asarini, tarjimalarini o'qib hayratlanaman, – dedi shoira Sharifa Salimova. – Ularda ona tilimiz jozibasiga, betakrorligi

– Sakkiz jildan iborat bu kitob jamlanmasi o'zbekning peshanasiga bitilgan ijodkorning bir evolutsiyasini – ijodidagi tadrijiy bosqichlarni ko'rsatib beradi. Ushbu kitoblarda adabiy janrlarning nihoyatda rang-barangligini ko'rish mumkin. Taqdir, tahlil adabiyotshunoslik, mualliflarga xatlar, qahramonlarga xatlar, kundalıklar, mansuralar, falsafiy esselar ularda mujassam. Bu kitoblar shunisi bilan ahamiyatli, milliy adabiyotimizdagi bor dolzarb mavzularga Ibrohim G'afurov munosabat bildirganlar. Unda Sharq mumtoz adabiyoti vakillari, dunyo adabiyoti namoyandalari haqida teran tahliliy fikrlar bildirilgan. Yaxshi kitob insonga zavq, shavq, hayotga bo'lgan rag'batni kuchaytiradi. Mazkur sakkiz jildlik kitoblar haqida ham shunday fikrlarni bildirish mumkin. Ayni paytda muallif yosh ijodkorlarning she'rlarini tahlil etib, ularni soxtalikdan, zo'rma-zo'rakilikdan ogohlantiradi.

– Ibrohim G'afurovning tarjimalarida bugun insoniyat duch kelayotgan savollarga, o'quvchi, umuman insoniyat o'z-o'ziga beradigan savollariga javob topadi, – dedi mohir yozuvchi Nazar Eshonqul. – Bu kitoblarda har qanday stereotiplarni, har qanday qoliqlarni buzib yuboradigan gaplar bor.

Ibrohim aka o'z esselari orqali bizning tafakkur tarzimizni jahon tafakkur tarziga ko'tarib turgan ijodkoridir.

– Shunday ustozlarimiz sababli so'z san'ati bilan tanishganmiz, – dedi adabiyotshunos olim Bahodir Qobul. – Men Ibrohim G'afurov, Abdulla aka, Baxtiyor Nazarov, Ibrohim Haqqul singari adabiyot darg'alariga shogird bo'lganimdan faxrlanaman. Adabiyotda tarjima san'ati g'oyat muhim yo'nalishdir. Shu sababli ham Ibrohim G'afurov tarjima ijodiy maktabini yaratish taklifini bildirmoqchiman.

– Bunday muloqotlarga, yoshlar huzuriga kelish uchun ijodkorning qo'lida samarali natijalari bo'lishi kerak, – dedi tadbir yakunida adabiyotimiz fidoyisi Ibrohim G'afurov. – Mening bu asarlarim yoshlar oldiga kelish uchun imkoniyatdir. Bu kitoblarda mamlakatimizdagi

adabiy jarayonlar, o'zbek ziyolilarining XX asrdagi ruhiy, psixologik, qarashlari, fikrlari aks ettirilgan. Bu jamlanma ustida uch-to'rt yillar davomida ishlab, tahrir etib, bugungi kitobxonga munosib tarzda yetkazish borasida ish olib bordik.

"Adabiyot dunyosi" deb nomlangan 8 jildlik kitoblar to'plami "Yangi asr avlodi" nashriyatida chop etilgan bo'lib, asosan adabiyot dunyosiga oid jarayonlar hamda badiiy tarjimalardan iborat.

Tadbirida adabiyotimiz darg'asining faoliyati, uning ijodiga oid yangi kitoblar xususida, ustoz ijodiga oid tarjima maktabini mazkur universitet huzurida tashkil etish yuzasidan batafsil so'z yuritildi. Ayni paytda o'z ijodi bilan faollik ko'rsatayotgan yoshlar taqdirlandi.

N.USMONOVA, O'ZA

Partiya nufuzini oshirishning yana bir yo'li bu – partiya dasturlarini soddalashtirishdir. Ya'ni, partiya dasturlaridan saylovchi manfaatiga taalluqli bo'lmagan boshqa bandlarni chiqarib tashlash kerak.

ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Muallifning bugun taqdimoti bo'lib o'tayotgan asarlari ko'plab ilmiy ishlarga, tadqiqotlarga asos bo'la oladi. – Adabiyotimiz fidoyisi Ibrohim G'afurovning ijodini ummonga qiyoslash mumkin, – dedi adib va jurnalist Xurshid Do'stmuhammad.

Subyektiv

## QONUN USTUVORLIGI – QONUNGA QAT'IY AMAL QILISH DEMAKDIR

Y angilangan Konstitutsiyamizda har bir shaxsga o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish kafolatlab qo'yildi. Shuningdek, har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yohud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqlidir.

Fuqarolik protsessual kodeksining 181-moddasiga ko'ra, qarzdor arz qilingan talabga qarshi e'tirozlarini sud buyrug'ining ko'chirma nusxasini olgan kundan e'tiboran o'n kun muddatda sudga yuborishi mumkin. Bunday holda sudga sud buyrug'ini bekor qilib, bu

haqda ajrim chiqaradi. Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi ajrimda sudya undiruvchi bildirgan talab da'vo ishini yuritish tartibida taqdim etilishi mumkinligini tushuntiradi. Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi ajrimning ko'chirma nusxasi ajrim berilganidan keyin uch kun ichida undiruvchiga va qarzdorga imzo qo'ydirib topshiriladi yoki ularga pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi.

Ko'p hollarda, aliment bilan bog'liq toifadagi ishlar yuzasidan qabul qilingan hal qiluvchi qarorlarga nisbatan apellyatsiya shikoyatlarini o'rganish jarayonida shikoyat beruvchi shaxslar undirilayotgan aliment miqdori da'vogarning o'zi uchun undirilishini ta'kidlashadi. Vaholanki, qonun talabiga ko'ra, aliment bola kimning qaramog'ida bo'lsa (ota-ona yoki vasiy)

o'sha shaxsning foydasiga undirilishi belgilangan.

Ma'lumot o'rnida qayd etish joizki, Xorazm viloyat sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlari tomonidan 2022-yilda jami 23 262 ta fuqarolik ishlari ko'rib chiqildi. Shundan, 13 802 ta holatda da'vo talablari qanoatlantirilib, 1 507 ta holatda da'vo arizalari rad etildi. Bundan tashqari, 260 ta fuqarolik ishi ish yuritishdan tugatilib, 3 029 ta da'vo arizasi ko'rilmadan qoldirilgan. Shu bilan birga ariza tartibida 18 316 ta sud buyrug'i chiqarildi. Bu raqamlar qiyoslanganda 2021-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sish borligini ko'rish mumkin.

G'aybulla MIRZAYEV,  
Xorazm viloyat sudining fuqarolik  
ishlari bo'yicha sudyasi





## O'ZBEKISTONDA

## RAHBAR

LAVOZIMLARDA ISHLAYOTGAN AYOLLAR ULUSHI  
NECHA FOIZNI TASHKIL ETADI?

Ma'lumotlarga ko'ra, respublikamiz siyosiy partiyalarida xotin-qizlar ulushi 47 foizga, oliy ta'limda 48 foizga, tadbirkorlik faoliyatida esa 37 foizga yetgan. Rahbar lavozimlarda ishlayotgan ayollar ulushi 33 foizni tashkil etadi. 2 mingga yaqin davlat va jamoat tashkilotlariga ayollar rahbarlik qilmoqda.

Poytaxtda O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari: joriy holat va istiqbol" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Tadbirda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'raonliklardan himoya qilish masalalari xususida so'z bordi.

Qayd etilishicha, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash

bo'yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida eng quyi bo'g'in – mahalla va xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim yaratildi. 10 mingga yaqin mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi joriy etildi. Qarorlar qabul qilish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli darajada ortdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 33 foizi, Senat a'zolarining 24 foizi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining 25 foizi ayollardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Raisi, Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, Bosh vazir o'rinbosari, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili, Bola

huquqlari bo'yicha vakili, Oliy sud raisining birinchi o'rinbosari, Bosh prokuror o'rinbosari lavozimlarida ayol rahbarlar faoliyat yuritmoqda.

Vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda xotin-qizlar ulushi 5,7 foizga yetgan. Bugungi kunda 8 nafar vazir o'rinbosari, 1 nafar qo'mita raisi o'rinbosari, 2 nafar agentlik direktori o'rinbosari lavozimida xotin-qizlar ishlab kelmoqda. Tuman (shahar) hokimlari lavozimida 4 nafar xotin-qizlar (Kattaqo'rg'on shahar, Bo'ston, Olot, Boyovut tumanlari) faoliyat olib bormoqda.

Adliya organlari va muassasalarida 8 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritayotgan bo'lsa, shundan 3 mingga yaqini, ya'ni 38 foizi xotin-qizlardan iborat.

Sud tizimida ayni paytda 179 nafar ayol sudya faoliyat ko'rsatmoqda. Bu umumiy sudyalarning qariyb 14 foizini tashkil etadi. Ularning 25 nafari rahbarlik lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda. 2018-yilda Ichki ishlar organlarida ayollar ko'rsatkichlari shaxsiy tarkibning 5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakuniga ko'ra, ushbu ko'rsatkich ikki baravarga oshib, 10,2 foizni tashkil etmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonning Isroildagi elchisi hamda O'zbekiston Respublikasining Italiya va Fransiya davlatlaridagi elchixonalarini birinchi kotibi – konsuli lavozimiga diplomat ayollar tayinlangan.

Muhayyo  
TOSHQORAYEVA,  
O'ZA

Tarix va taqdir

## IBN SINO QANDAY VAFOT ETGANDI?

**T**ib ilmining sultoni sanalgan Abu Ali ibn Sino umrining oxirigacha minglab bemorlarni davoladi. Ko'p bemorlarni o'limdan saqlab qoldi. Ammo o'ziga kelganida...

980-yilda Buxoroning Afshona qishlog'ida tug'ilgan Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Ali ibn Sino o'zidan juda katta meros qoldirgan shaxs edi. Asli xorazmlik bo'lsa-da, Buxoroda yashab ijod qilgan an-Notiliyga shogird tushgani uning ibn Sino bo'lib dovrug' taratishiga sabab bo'lgan. U hatto ustozidan ham o'zib ketgan deyish mumkin. Ibn Sino garchi Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolab, katta e'zoz-u ehtiromga loyiq topilgan bo'lsa-da, Somoniylar davlati qulab, Buxoro sharifini Qoraxoniylar egallagach, 1005-yilda Xorazmga kelishiga majbur bo'lgan. Shu tariqa u ijod uchun tinch va barqaror hayotni istab, 1012 – 1014-yillarda Jurjonda, 1014-yili Rayda, 1015 – 1023-yillarda Hamadon va so'ngra Isfahonda muhojirlikda yashadi.

Afsuski, hayotda shunday insonni ko'ra olmaydiganlar ham bor edi. Xususan, Hamadonda yashayotganida fitna tufayli amir askarlari ibn Sinoning uyiga bostirib kirib, molu mulkini talon-taraj

qilishadi. Bu ham yetmaganidek, Amir Shamsuddavladan buyuk hakimni o'ldirishni talab etishadi. Natijada, vaziyat o'nglangunicha ibn Sino ibn Dahnuh degan kishining uyida qirq kun yashirib yotishga majbur bo'lgan. Boshqa bir safar esa ibn Sino Faradjon qal'asida ma'lum muddat qamoqda saqlangan. Bularning bari ulug' hakimning sog'lig'iga salbiy ta'sir o'tkazmay qolmaydi. 1035-yilda Isfaxon amiri Alouddavla bilan Toshfarrosh o'rtasida urush bo'lib turgan pallada ibn Sinoni qattiq sanchiq tutib qoladi. Buyuk hakim tezda o'zini davolashga kirishib, kuniga 8 martalab o'ziga o'zi huqna (klizma) qila boshlagan. Noqulay joylarda qilingan huqna natijasida ibn Sinoning ichaklari batar yallig'lanib ketadi. Amir Alouddavla esa hakimning kasallig'iga beparvo qarab, ibn Sinoni betob holida ham 2 yil davomida o'z safarlarida birga yurishga majbur qiladi. Bu vaqt ichida hakimning dardi kuchayib, ichaklardagi o'tkir yallig'lanish

natijasida sanchiq va og'riqlar zo'rayadi. Al-Juzjoni shunday yozib qoldirgan: «Hatto u bir gal huqna qilinadigan narsa ichiga ikki dona karafs urug'i aralashtirishni buyurdi. Bu bilan u sanchiq paytida paydo bo'ladigan qorin dam bo'lishini yo'q qilmoqchi bo'lgandi. Tabiblardan biri aralashmaga karafs urug'ining besh dirham vazndagisini solib yuboribdi. Bu tabib ataylab shunday qildimi yo yanglishib dorini ko'p solib yubordimi – buni bilan bilolmadim, chunki o'sha paytda ish ustida bo'lmagan edim...»

Ushbu «yanglishish» ibn Sinoning dardini zo'raytirib yuboradi va ahvoli og'irlashib qoladi. Shunda ham sog'ayishdan umidi so'nmagani tabib o'zini davolashga zo'r berib intiladi. Ammo tabobat qoidalarga har qancha riya qilmasin, qochqinlik va qamoqda kechgan yillar, tinimsiz mehnat, ijod tufayli tunni tongga ulashlar natijasidagi uyqusizlik, hasadgo'ylarning kirdikorlari tufayli tortilgan

azob va toliqishlar unga salbiy ta'sir o'tkazib bo'lgandi. Al-Juzjoni yozishicha, ibn Sino kasal bo'lib yotgan kezlarda uning xizmatkorlaridan biri ichiladigan doriga ko'p miqdorda afyun qo'shib bergan. Buni ibn Sino hatto sezmay ham qolgan. Bunday yomonlikning sababini al-Juzjoni shunday izohlagan: «Bunday xiyonatning sababi – o'sha xizmatkorning ibn Sinoga tegishli anchagina mablag'ni o'marganida edi. Agar u tuzalib ketguday bo'lsa, xizmatkor o'z qilmishining oshkor bo'lishini va oqibatda jazolanishini bilib, buyuk hakimning o'limini istagan edi». Afyundan so'ng ahvoli og'irlashgan ibn Sinoni Hamadonga olib kelishadi. Shu tariqa 56 yoshli tib ilmining sultoni, buyuk mutafakkir alloma ibn Sino 1037-yili ramazon oyining birinchi jumasida – 24 iyun kuni Hamadon shahrida vafot etadi.

hordiq.uzdan olinib, tahrir qilindi.



# KUSHON IMPERIYASI


## MO'JIZASI

Ayritomning moddiy-madaniy yodgorliklari davlatchiligimizning kushonlar davridagi tarixi va madaniy-merosini o'rganish hamda Kushon imperiyasi davrida hududimiz turli dinga e'tiqod qiluvchilarning madaniy markazi bo'lganligi haqida ma'lumotlar beruvchi tarixiy yodgorlikdir.

O'zbek xalqi tarixi va madaniyatidan guvohlik beruvchi ko'hna shahar xarobasi Ayritom Termiz shahridan 18 km sharqda, Amudaryo qirg'og'ida joylashgan. Mazkur tarixiy qal'a qadimiy tamaddunimizning moddiy yodgorligi bo'lib, uning umumiy maydoni 90 gektardan iborat. 1932-yilda Ayritom yaqinida Amudaryo tubidan odam haykalchalari bilan birga friz parchalarigacha topilgan, 1933-yilda esa yana 7 ta friz bo'laklari hamda Budda ibodatxonasi xarobasi topilgan. Frizlar I-II asrlarga oid bo'lib, ularda qo'shnay, chiltor, ud, nog'ora chalayotgan sozandalar va gulchambarlar, meva solingan idish ko'targan yigit-qizlar aks etgan. Shu o'rinda Ayritomdagi alohida qismlarga ajratilgan qal'a qoldiqlari Amudaryoning baland qirg'og'ida joylashgan bo'lib, ularda uch tomonlama mudofaa devortari hamda minoralari bilan o'ralgan mahobatli bino bezaklari bo'lganini aytish joiz. Qal'a binosi milodning I asrga oid imorat xarobalari ustida qurilgan bo'lib, tasvirlari bo'rtma shaklli bezakli bloklar bino peshtoqining tepasini va ibodatxonaga kirish yo'lini bezab turgan. Ayritomdan topilgan sakkizta gorizontal koshindan iborat friz burchaklarida ikki qator akant barglari tasvirlanganini



1932 год. АЙРТАМСКИЙ ФРИЗ



ham alohida ta'kidlash kerak. Ularning o'rtasida esa ko'kragigacha bo'rttirib ishlangan va go'yoki akant barglari orasida uchib yurgan odamchalar shakli bor. Ular samo musiqachilari – arfa, ud, qo'shnay, do'mbira, chang chalayotgan gandaxarvalar hamda gulchambar, idish va mevalar taqqan donatrislar tasviridir. Bunday haykalchalarning etnik mansublik xususiyatlari o'ziga xos – keng dumaloq yuz, o'rtacha kattalikdagi ko'z, chakkaga tortilgan qoshlar, qirra burun sifatida tasvirlangan. Eng qizig'i, ularning hammasi bayramona libos, hashamatli bosh kiyim va qimmatbaho taqinchoqlar taqqan holda tasvirlangan. Shunga qaramay haykallar yuzida hayajon yoki yoshi va darajasini ko'rsatuvchi alohida



73. Музей юности. Фриз из Айритма. I-II вв. Деталь.

belgilari ko'rinmaydi. Faqat qiyofalarda zohidlik aks etgan. Akant barglari esa shakllarni umumlashtirishga xizmat qilgan. Ehtimol, bu kabi tasvirlash tarzi Baqtriyaning badiiy-madaniy uslublariga xos bo'lishi mumkin, albatta. Ayritom frizida «Parinnirvana-jataka» bilan bog'liq sahna ham aks ettirilgan. Hind rivoyatlariga ko'ra, beshta yirik musiqa asbobi Buddaga muloyim ohanglar bilan orom bag'ishlashi, donatrislar esa uni oxirgi yo'lga muattar gullar bilan kuzatishi lozim. Ayritomda topilgan frizda aynan afsonaviy lavha mahalliy aholi obrazlari orqali ifodalangan bo'lib, bu jihat uni yerlik aholi tushunishini osonlashtirgan. Bundan tashqari, Ayritom frizida Gandaxara san'ati bilan yaqin bog'liqlik borligi ham aniqlangan. Bu esa Kushon saltanati bo'ylab keng tarqalgan hamda olimlar tomonidan mislsiz tarixiy-madaniy voqeilik sifatida qayd etilgan gandaxara maktabi mavjud bo'lgani haqidagi

fikrlarni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Ayritomdan miloddan avvalgi II asr oxiri va milodiy IV asrlarga oid ikkita qabr topilib, ularning biridan qurol-yarog'lari bilan birga dafn qilingan jangchining, ikkinchisidan idish-tovoqlar hamda zeb-zeynatlari bilan ko'milgan ayolning skeletlari chiqqan. 1964-yilda Ayritom ibodatxonasidan sharqiy tomonga qarab bir kilometr uzoqlikda sirti tosh bloklar bilan qoplangan stupa kavlab olingan. 1979-yilda esa Budda ibodatxonasi binosi yonida arxeologlar ikki personaj tasvirlangan va tagstupasida o'yib yozilgan olti satrdan iborat Baqtriyaya yozuvi bo'lgan yodgorlik toshini qayd qildilar. Hozirda Ayritomdan topilgan ashyolar «Termiz» davlat muzey-qo'riqxonasi fondida saqlanmoqda.

**Nilufar ALIQULOVA,**  
«Termiz» davlat muzey-  
qo'riqxonasi  
Katta ilmiy xodimi

## AXSIKENTDA BO'LGANMISIZ?



**A**xsikentni ochiq osmon ostidagi muzey deyildilar. Sirdaryo bo'ylaridagi tepaliklar bir-biriga tutashib ketgan, asrlar davomida Farg'ona davlatining poytaxti bo'lgan bu ko'hna zamin sirsinoatlari endi-endi ochilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashrifidan so'ng yodgorlik majmuasini turizm markaziga aylantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Buning tarixiy asori-atiqalari bor, albatta.

Axsikentliklar qadimdan konlarda ishlaganlar, mis va temir eritish bilan, temirchilik, metallardan turli xil harbiy va mehnat qurollari yasash, misgarlik, kandakorlik, aravasoqlik, gilam to'qish, namat bosish, degrezlik, pichoqchilik, bo'z to'qish, shohido'zlik dastgohlari, zargarlik, binokorlik va boshqa ishlar uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalarni ishlab bilan shug'ullanganlar.

Saqlanib qolgan quyosh va suv soatlari, yulduzlarning jadvallari allomalarning zo'r zakovatlari bilan ijod etilgan munajjimlik asboblari qadimgi Axsikentda ilmu fanning

qay darajada rivoj topganligi va yuksalganligini ham yaqqol ko'rsatadi.

Ko'hna Axsikentning ajoyib topilmalari ichida qo'shquloq — ko'z asimon idish, eramizning III asriga mansub zangori tusda sir berib sayqallangan guldon, X asrga oid lagan va kosalarni Axsikent kulolchilik san'atining eng yorqin namunalaridan biridir, deb aytish mumkin.

Bu yerda yaqin kelajakda Markaziy Osiyodagi eng katta muzey tashkil etiladi. Axsikentning qadimiy dovrug'ini tiklash maqsadida ramziy darvoza quriladi. Umarshayx Mirzo va Kamoliddin Behzod chizgan suratlar asosida ularning haykali bunyod etiladi. Yaqinda esa,

Axsikent asori-atiqalarini va tarixini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etdik. Unda 16 ta mamlakatdan 20 dan ortiq nufuzli olimlar ishtirok etdi, — deydi Axsikent arxeologiya merosi ob'yektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi rahbari Anvarjon Ikromov. — Ular eski va yangi Axsikentda bo'lishganida bu yerlarni jahonning ilg'or tajribasiga asoslangan

turizm markaziga aylantirish borasida tavsiyalar berildilar. Tarix, arxeologiyani tabiat bilan bog'lash, ya'ni daryo bilan uyg'unlikdagi loyihalar ishlab chiqish, gastronomiya masalalarida ham takliflarini aytdilar.

Ayni paytda Axsikentning bosh rejasi ishlab chiqilmoqda. Uning tarkibida 10 dan ortiq ochiq osmon ostidagi muzeylar bo'ladi. Yangi va eski Axi orasidagi daryo bo'ylab 5 km yo'l ochish, uning ikki yonida «Hunarmandlar markazi» tashkil etish, suv orqali kichik sayyohlik kemalari harakatini yo'lga qo'yish, ekoturizm masalalari bo'yicha ishlar ketmoqda. Bu loyihaning amalga oshishi natijasida bir millionga yaqin sayyohga xizmat ko'rsatish imkonini yaratiladi.

Yangi Axsikentdagi muqaddas ziyoratgohlar, ayni kunlarda topilgan bebaho qo'lyozma, toshbosma asarlar, yangi qurilayotgan mahobatli binolar bu maskanlar nomi mamlakat sayohat xaritasida bosh harflar bilan bitilishidan darak bermoqda.

**Muhammadjon OBIDOV**



Mercedes-Benz kompaniyasi Microsoft va OpenAI bilan hamkorlikda Mercedes-Benz mashinalarini sun'iy intellekt o'rnatilgan ovozi yordamchi bilan boshqarishni reja qilmoqda. Hozirda ushbu amaliyot bo'yicha AQSHda ilk sinovlar o'tkazilmoqda. Loyiha 2025-yilda yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan.

Chorshanba  
21-iyun, 2023-yl  
№19 (1207)



## ENDI ERON HAM SHHTDA

Eronning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga (SHHT) to'laonli a'zo bo'lgani 4-iyun kuni e'lon qilinadi. Tehron Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha a'zo majburiyatlarini bajardi. SHHTning a'zosi bo'lib o'tadigan yig'ilishida Eronning SHHT tashkilotiga to'laonli a'zo sifatida qabul qilinishi muhim qarorlardan biri bo'ladi. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining SHHT ishlarini bo'yicha maxsus vakili ham Eron Islom Respublikasining tashkilotga to'laonli a'zo sifatida qabul qilinishi navbatdagi sammitning asosiy qarorlaridan biri bo'lishini ta'kidladi.

## UZOQ KUTILGAN UCHRASHUV VA...

Xitoy rahbari Si Zinpin Pekinda AQSH davlat kotibi Eroni Blinken bilan uchrashdi. Bu AQSH diplomatiyasi rahbari va Xitoy rahbari o'rtasidagi 2018-yildan beri birinchi uchrashuv bo'ldi. The Washington Post nashri xabariga ko'ra, 35 daqiqa davom etgan uchrashuvda Xitoy va AQSH qator masalalar bo'yicha taraqqiyot va kelishuvlarga erishgan. Blinken, shuningdek, XKP Markaziy Qo'mitasining Tashqi ishlar komissiyasi departamenti rahbari Van I bilan ham uchrashdi. BBCning ta'kidlashicha, AQSH delegatsiyasi Pekingga tashrifidan katta yutuqlarni kutgani yo'q. Shuning uchun ham kamtarona natijalardan ham mamnun...

## TRAMP AFV ETILADIMI?



The Hill Garvard CAPS-Harris sotsiologik xizmati tadqiqoti natijalariga ko'ra, amerikaliklarning aksariyati (53 foiz) Tramp sud jarayonida aybdor topilsa va qamoqqa tashlansa, uning afv etilishini ma'qullaydi. Qamoqxona masalasida Respublikachilar partiyasi tarafdorlarining 80 foizi va demokratlar tarafdorlarining 30 foizi afv tarafdoridir. Yana bir gap: amerikaliklarning 57 foizi Trampning aybdor deb topilishiga ishonmayapti.

## ROBOT YORDAMIDA NEYROJARROHIKA AMALGA OSHIRILDI



Kanadada robot yordamida epilepsiya kasalligini davolash uchun o'tkaziladigan chuqur miya operatsiyasi amalga oshirildi. Bu kasallik asosan miyadagi ba'zi neyronlarning elektrod yetkazib bera olmasligi sababli kuzatiladi. Operatsiya jarayonida miyaning yetib borish qiyin bo'lgan joylariga robot yordamida yetib borib, elektrod o'rnatiladi va shu amaliyot orqali kasallik davolanadi. Qizig'i shundaki, bunday operatsiyadan so'ng bemor 2-3 kun ichida uyiga ketishi mumkin bo'ladi.

## XITOIY METROSIDA FUQAROLARNING TELEFONLARI TEKSHIRILMOQDA

Xitoy politsiyasi muntazam ravishda ko'cha va metroda fuqarolarning telefonlarida «zararli» siyosiy va pornografik kontent, shuningdek, taqiqlangan ilovalar (VPN, Twitter, Facebook, YouTube) bor-yo'qligini tekshirmoqda. Agar yuqoridagi holatlar aniqlansa, katta jarima va oylab qamoq jazosi tayinlanadi.



## «GEGEMONLAR» UCHRASHDI


Xitoy yetakchisi Si Zinpin Microsoft kompaniyasi asoschisi Bill Geys bilan uchrashdi va unga «Siz bu yil Pekinda uchrashgan birinchi amerikalik do'stimsiz» dedi. Qizig'i shundaki, Geysning tashrifi Ilon Maskning yaqinda Xitoyga qilgan safaridan ancha oldin yuz berdi. Biroq Xitoy rahbari Mask bilan shaxsan uchrashmagan.



## 3000 YILLIK QILICH TOPILDI

Nemis arxeologlari 3000 yildan ortiq tarixga ega bo'lgan bronza davriga oid artefakt uchun nihoyatda yaxshi saqlangan qadimiy qilichni topishdi. Nyordlingen shahridagi qadimiy qabristondan topilgan sakkiz burchakli dastali bronza qilich miloddan avvalgi XIV asr oxirida zarb qilingan. Taxminan o'sha davrga tegishli qilich va boshqa bronza buyumlari uch kishi – er-xotin va o'g'ilning jasadi bilan birga dafn etilganligi aytilmoqda. Olimlarning ta'kidlashicha, Nyordlingen qilichi janglarda ishlatilmagan. Ammo uning egasi qilichni jangovar qurol sifatida o'zi bilan olib yurgan.

## SNouden AFV ETILADI...



AQSH prezidentligiga nomzod Robert Kennedy WikiLeaks asoschisi Julian Assanj, AQSH Markaziy razvedka boshqarmasi va NSA sobiq xodimi Edvard Snouden afv etishga va'da berdi. «Men Vashingtonda Snouden haykalini o'rnatgan bo'lardim. Snouden ma'lumotni e'lon qilganda, mamlakatimizda bu haqda hech kim bilmas edi. Maxfiy xizmatlar bizning barcha ma'lumotlarimizdan foydalanib, amerikaliklarga ochiqchasiga josuslik qilishardi. Nega bu yigitni jinoyatchi qilib qo'yyapsiz? U aslida amerikalik qahramon. Ha, men bu yigitlarni afv etaman. Aytmoqchimanki, ularning ishlarini ko'rib chiqaman. Assanjni men birinchi kuniyiq kechiraman. Chunki bu aqlga sig'maydigan narsa», - dedi Kennedy.

## UNUTILGAN



## HATTA INSON

To'la ishonch bilan aytamanki, Sarvar Azimov xotirlashga, e'zozlashga loyiq, munosib shaxs. Xo'sh, unda bu inson haqida sukut saqlashning sababi nimada? Befarqlikdami? Nahotki, Sarvar Azimovning sa'y-harakatlari tufayli uyjoyli bo'lgan, katta-katta imtiyozlardan foydalangan ijodkorlar bugungi islohotlar davrida ham jim o'tiraversalar?! Bu Sarvar Azimov xotirasiga nisbatan bepisandlik emasmi?!

Atoqli shoir Hamid Olimjonning ukasi Sarvar Azimov 1923-yilning 20-mayida Jizzaxda tug'ilgan. Bolaligidan ilmga, kitob mutolaasiga mehr bilan ulg'aygan Sarvar Azimov o'z tarjimai holida shunday yozadi:

«Men o'qishdan, kitob ko'rishdan qaytgan bola bo'lmadim. Sho'xligim o'zimga yarasha. O'ynab charchamasdim. Toshkentda katta shaharda (Hamid Olimjon Toshkentda Zulfiyaxonimga uylangach, ayasi va ukalarini ham poytaxtga ko'chirtirib kelgan edi – muallif izohi) esa qishloq bolasini chalg'itadigan narsalar yetib ortardi. Lekin o'qish mening tiniq havasim edi. Murabbiylarimizdan birining «Bu bola o'qishni, o'qish bu bolani yaxshi ko'radi» degani haliyam esimda... Men uchun yana bir muhim maktab – Hamid Olimjonning saralab yig'ilgan, adabiyot va san'at asarlariga chunon boy kutubxonasi edi. Uning ichidan chiqmasam derdim, hatto ayamlar buyurgan ish ham malol kelardi...».

O'rta Osiyo Davlat universitetida tahsil olgan Sarvar Azimovning o'qish davri Ikkinchi jahon urushi yillariga

to'g'ri keldi. Ma'lumki urush davrida Moskva va Leningradan A.Yakubovskiy, Ye.Bertels, V.Jirmunskiy, D.Blagoi, B.Meylax, A.Borovkov singari ko'plab olimlar Toshkentga kelib, universitetda talabalarga ma'ruza o'qishar, ijodiy-ilmiy jamoatchilik orasida turli tadbirlar o'tkazib turishardi. Marhum adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinov yozganlaridek: «Bunday sarbaland olimlar yonida yurib, ulardan tahsil olgach, «mulla» bo'lmaslikning iloji yo'q edi. Ayni o'sha kezlarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida bo'lib turadigan adabiy kechalar, bahs-munozaralar, yangi asarlar muhokamalari, u yoki bu yozuvchining ijodiy kechalari Sarvar Azimov uchun ikkinchi dorilfunun bo'lgan edi. Ularning hammasiga kanda qilmay qatnagan Sarvar Azimov adabiyot doshqozonida obdon qaynadi».

## MASHAQQATLI ILM YO'LI

Sarvar Azimov 1945-yilda akasining vafoti tufayli qattiq qayg'u ichida qolganiga qaramay, unga bergan va'dasining ustidan

chiqish uchun aspiranturada tahsil ola boshladi va Hamid Olimjon ijodi bo'yicha tadqiqot olib borib, nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi.

1948–55-yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida ish boshlagan bo'lsa, Markazqo'mda fan va madaniyat bo'limi mudiri, O'zbekiston Madaniyat vaziri, sobiq ittifoqning Livandagi, Pokistondagi favqulodda va muxtor elchisi,

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri kabi mas'uliyatli vazifalarda fidoyilarcha mehnat qildi. Mahoratli va kuchli diplomat sifatida BMT va boshqa xalqaro minbarlardan nutq so'zladi.

Shuningdek, faoliyati mobaynida maktablar uchun o'zbek adabiyotidan darsliklar yaratishga bosh bo'ldi. Ozod Sharafiddinovning xotirlab yozishlaricha, «o'sha paytda ko'p yillardan beri maktablarda o'zbek adabiyoti tayinli dastursiz va hech qanday darsliklarsiz o'qitilar edi. O'qituvchilarning umri material qidirish bilan o'tardi. Qayerdaki o'zbek adabiyoti to'g'risida, o'zbek yozuvchilari haqida shapaloqdek material chiqqan bo'lsa, uni qidirib topib, chatib-yamab, olaquroq holga keltirishar va har kim o'zbek adabiyotini bilganicha o'qitardi». Ana shunday davrda Sarvar Azimovning o'zi bosh bo'lib darslik yaratgani adabiyot o'qituvchilari uchun katta sovg'a bo'ldi.

1956 – 57-yillardagi

Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik davrida, shaxsga sig'inish yillari qatag'onga uchrab, qamoqda o'tirib kelgan ko'plab adiblarning oqlanishiga, ularga zarur sharoitlarni yaratib berish va asarlarini chop ettirish ishlariga ham bosh bo'ldi. 1957-yilda o'tkazilgan ilk xalqaro tadbir – Osiyo va Afrika yozuvchilarining birinchi konferensiyasi ochilishida

shunchaki tomoshatalablar ham ko'p edi. Yashirishga hojat yo'q – mehmonlar ichida ziyofat ishtiyoqida kelganlari ham yetarli edi. Gap shundaki, o'sha kezlarda dissertatsiya himoyasidan keyin dasturxon yozish, banket qilish, olim bo'lganini «yuvish» borgan sari chuqur tomir yoymoqda edi. O'zbekning tabiatida bormi, bilmadim har holda, bu borada ham musobaqalashish,

«... Men uchun yana bir muhim maktab – Hamid Olimjonning saralab yig'ilgan, adabiyot va san'at asarlariga chunon boy kutubxonasi edi. Uning ichidan chiqmasam derdim, hatto ayamlar buyurgan ish ham malol kelardi...»

o'zining katta tashkilotchilik qobiliyatini ko'rsatdi. Eng asosiysi, o'sha yili Toshkentning Chilonzor mavzesida qurilgan yangi uylardan yozuvchi va shoirlar uchun o'ttizga yaqin xonadon ajratib berilishiga erishdi.

Sarvar Azimov umr bo'yi ilm bilan shug'ullanishni kanda qilmadi. U filologiya fanlari doktori darajasiga, professor unvoniga ham ega edi.

## KATTA SABOQ

Yaxshi esimda, Sarvar Azimovning doktorlik himoyasi Gogol ko'chasidagi 70-uyda – Fanlar akademiyasining konferensiya zalida bo'ldi. O'sha kuni shu katta va keng zal ham yig'ilganlarni sig'dira olmadi. Odamlar ichida olimlar ham,

hammadan oldinda bo'lish avj olgandi. Oqibatda, bunaqa banketlarda 200-300 kishi ishtirok etar, hatto karnay-surnaylar chalinib, ziyofat rosmnana to'yday o'tardi. Odamlar «Falonchining dissertatsiyasida nima yangilik bor ekan?» deb so'rashmas, «Himoyadan keyin ziyofat qandoq bo'ldi?» deb so'rashardi...

Biz keksa adabiyotshunos Porsoxon Shamsiyev bilan yonmayon o'tirib, himoyadagi gaplarni chala-yarim tinglab, olimlarning ezmaligidan ranjib o'tiribmiz. Nihoyat, himoya tugadi, hisob komissiyasi ovoz berish yakunlarini e'lon qildi, kengash raisi dissertantni tabrikladi, dissertant minnatdorchilik bildirdi. Butun zaldagilar Sarvar Azimov kamtarlik

# L'Orient

LE PLUS FORT TIRAGE DES JOURNAUX DE LANGUE FRANÇAISE DU LIBAN

Publication: Mercredi 25 février 1970  
N° 13.077  
14 pages  
35 P.L.  
R. P. 006 - Tel. 250.211  
Tél. : JARBE 917 - BEVY  
Rue Yafra  
Beirut  
Publication: Genes MADRONE  
Genes MADRONE  
Genes MADRONE  
Genes MADRONE

## L'ANNIVERSAIRE DE L'ARMÉE SOVIÉTIQUE CÉLÉBRÉ À BEYROUTH



De nombreuses personnalités libanaises et étrangères ont participé à la célébration de l'anniversaire de l'Armée soviétique à Beyrouth.

NOTRE PHOTO: M. Sarvar Azimov, le président Karané à son arrivée à l'ambassade.



Président du conseil d'administration de l'Union des écrivains de l'URSS G. M. Markov et le secrétaire général de l'Union des écrivains de l'URSS S. A. Azimov.



**“** Sarvar Azimov umri davomida har xil mas'uliyatli lavozimlarda ishladi. Qayerda ishlamasin, tevaragida hamisha qat'iy tartib bo'lishini, hamma ishlar sarishta bo'lmog'ini talab qilardi. Ayni chog'da u odamlarga yaxshilik qilishni hayotining asosiy shiori qilib olgan edi... ”

Ozod Sharafiddinov

bilan: «Endi hammangiz bir piyola choyimizni baham ko'rasizlar, marhamat», deb taklif qilishini kutib turganda, u bamaylixtor qog'ozlarini yig'ishtirib, papkasiga joyladi-da, atrofidagilar bilan xayrma'zur qilib chiqdi-ketdi. Ziyofat dardida kelganlar hayron. Porsoxon aka bilan ikkovimiz ham bir-birimizga tikilib qolaverdik. So'ng ikkovimiz ham cho'ntaklarni qoqishtirib, bor pulimizni sanab ko'rdik-da, yaqin o'rtadagi restoranga yo'l oldik... Sarvar Azimov esa ziyolilarga yarashmaydigan ziyofatbozlikni oqlamasligi, bu masalada odamlarning gap-so'zlarini, g'iybatlaridan mutlaqo cho'chimasligini namoyish qilib barchamizga saboq bergan edi...

### BU MASKAN KO'NGILOCHAR GUZAR EMAS!

Sarvar Azimov adabiy-ilmiy faoliyati davomida hikoya va qissalar, kinossenariylar, risolalar yozdi. Shu bilan birga rahbarlik, tashkilotchilik qobiliyati, qat'iyati, madaniyati, vaqtning qadriga yetishdek noyob fazilatlarini ham hammaga ibrat bo'ldi.

Keling, shu o'rinda yana bir bor muvaqqit Ozod Sharafiddinovning xotiralariga quloq tutaylik:

«Sarvar Azimov umri davomida har xil mas'uliyatli lavozimlarda ishladi. Qayerda ishlamasin, tevaragida hamisha qat'iy tartib bo'lishini, hamma ishlar sarishta bo'lmog'ini talab qilardi. Ayni chog'da u odamlarga yaxshilik qilishni hayotining asosiy shiori qilib olgan edi. Har holda, men uni tanigan va bilgan odamlardan Sarvar aka to'g'risida shikoyatmiz gaplar

eshitmaganman. To'g'ri, ba'zi bir yozuvchilar bilan uning o'rtasida ancha keskin bahslar bo'lganidan, uning yuziga qattiq-qattiq gaplar aytilganidan xabarim bor. Lekin bular o'tkinchi gaplar edi. Yaxlit olganda esa u o'z faoliyati bilan yangi o'zbek adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirdi. U uyushmada ishni qat'iy tartib-intizom o'rnatishdan boshladi. Uyushmada ishlaydigan har bir xodim, har qaysi maslahatchi o'z vazifasini sidqidildan bajarmog'i shart edi. «Yozuvchilar uyushmasi bekorchixo'jalar salanglab yuradigan, gap sotib, valaqlashib o'tiradigan, ko'ngilochar guzar emas», derdi...»

O'zbekiston Xalq Yozuvchisi Tohir Malik «Yozuvchining baxti va baxtsizligi» kitobida bu haqida shunday fikr bildiradilar: «...Qarangki, o'sha vaqtda ikki-uch million aholisi bor Gurjiston yozuvchilar uyushmasining a'zolari mingdan ortiq bo'lgani holda, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zolarining soni to'rt yuztaga ham yetmas ekan. Albatta, badiiy adabiyotning

Toshkentning Darxon atalmish joyida olimlar uchun shinam uylar qurilgan edi, shuning bir qanoti yozuvchilarga berildi. Xullas, Sarvar Azimov raislik qilgan davrda Yozuvchilar uyushmasi katta vazirlik imtiyozlariga ega bo'ldi». «O'tkan kunlar» romanining qayta nashr etilishiga ham, «Yoshlik» jurnalining tashkil etilishiga ham aynan Sarvar Azimov bosh-qosh bo'lgan.

### RASHIDOVNING YAGONA HIMYOYACHISI

Ozod Sharafiddinov o'sha yillardagi serg'alva voqealarni eslarkan, mash'um XVI plenumdagi Sharof Rashidovni qoralash kampaniyasida faqat Sarvar Azimovgina jasorat bilan haqiqatni baralla aytganini ta'kidlaydilar:

«Plenumda tanqid har qanday chegaradan chiqib ketdi, Sharof Rashidovning har qanday ijobiy tomonlarini isbotsiz-dalilsiz rad qilish yo'lini tutdilar. O'zbekning atoqli arbobiga nisbatan juda katta adolatsizlik boshlandi. Bunday munosabat o'zbek xalqining sha'niga ham yarashmaydigan bir ish edi. Eng yomoni, zalni to'ldirib o'tirgan odamlarning hammasi Sharof Rashidovni ko'rgan, shaxsan taniyidigan, uning yaxshiliklaridan bahramand bo'lgan, hayotligida uning soyasiga ko'rpacha yozib yurgan odamlar edi. Rashidov sha'niga yog'dirilgan bo'htonlarni kimdir achinish va taassuf tuyg'usi bilan, kimdir loqaydlik bilan, lekin hammalari qo'yday yuvvoshlik bilan, indamay o'tirib eshitishdi va qarsaklar bilan qo'llab-quvvatlashdi ham. Faqat bir odamgina dadillik bilan minbarga chiqdi va Sharof Rashidovga nisbatan bunday bir yoqlama munosabatni keskin qoraladi. Uning nutqi Rashidovni fosh qilishdek noshoysta ishga bosh-qosh bo'lganlarning yuziga urilgan qahrli tarsaki bo'ldi. Qiziq, Sarvar Azimov o'sha kuni minbarda turib so'zlayotganida yaqin o'rtada shunga o'xshash boshqa bir plenumda o'zi ham Sharof Rashidovning ahvoliga tushajagini o'ylaganmikin, uning ustidan kurakda turmaydigan bo'htonlar seli quyilganda, unga nisbatan ham o'ta adolatsizlik qilganda hech kim o'rnidan turib, uni yoqlaydigan biron gap aytmasligini xayoliga keltirganmikin? Bilmadim... Har holda, o'shanda Sarvar Azimovning minbardan turib aytilgan qilichdan ham o'tkir, rost gaplari bir qator mutasaddilarni to'nini teskari kiyib olishga undadi va ular Azimovga qarshi yalpi hujum boshlash uchun bahona izlay boshladilar.»

Xullas, mafkura bo'yicha nomi chiqqan kotiba Sarvar Azimovga qarshi turli bo'htonlarni uyushtirdi. Biroq bu «ayblovlar» ham, oltmishdan ortiq dumaloq xatlar ham o'z isbotini topmadi. Shunday bo'lsa-da, mafkuraviy xo'jayin Azimovni uyushma rahbarligidan olishga erishdi. Bu haqida rahmatlik Ozod aka shunday xotirlagandi: «Kotiba kimlarningdir «oq fotih»sini olgan bo'lsa kerakki,

shoshilinch ravishda Yozuvchilar uyushmasining plenumini chaqirdi va unda Sarvar Azimovning ishdan olinganini e'lon qildi. Zalni to'ldirib o'tirgan yozuvchilar bu axborotni miq etmay eshitishdi. Uyushmada chin yurakdan, fidoyilik bilan ishlagan, uyushmaga ham, yozuvchilarga ham ancha-muncha xizmatlari singib ulgurgan Sarvar Azimov uchun hatto bir og'iz rahmat aytguvchi topilmadi. Holbuki, u ayni shu kuni – o'ziga nisbatan mislsiz adolatsizlik sodir bo'layotgan anjumanda odamlarning madadiga muhtoj, bir og'iz shirin gapiga zor edi. Hech kimdan sado chiqmadi. Sarvar Azimov yirik-yirik, lekin ancha ma'yuviy tortib qolgan ko'zlarini zalga tikdi-da, ma'nodor qilib:

– Hammalaringga rahmat!  
– dedi.

...Oradan biroz vaqt o'tib, hamma Sarvar Azimovni «tamom bo'ldi»ga chiqqan bir paytda u O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri lavozimiga tayinlandi. Chunki Moskvada Sarvar Azimovning layoqatini, ishchanligini juda qadrlashar va sobiq ittifoq rahbarlarining o'zi Azimovni qo'llab, shu lavozimga qayta tayinlagan edilar.»

Ozod akaning xotirlashicha, «oradan ko'p o'tmay, Sarvar Azimov betoblanib qoldi. Taqdirning adolatsizliklaridan to'ygan, odamlarning xiyonatidan va munofiqligidan hafsalasi pir bo'lgan bu inson betobligida ko'rgani kelganlarning birortasini ham qabul qilmay, olamdan ko'z yumdi...». Bu vaqtda Sarvar Azimov 71 yoshda edi.

Tohir Malikning yozishicha, Sarvar Azimov 1966-yildagi Toshkent zilzilasi o'ldirgan romanni yozib boshlagan ekan, afsuski, yakunlash nasib bo'lmadi...

Taklifim shuki, Sarvar Azimovning nomi abadiylashtirishimiz kerak. Toshkentdagi adiblar xiyobonida, ona yurti Jizzax shahrida unga haykal o'rnataylik, asarlarini qaytadan nashr etib, sahnaga olib chiqaylik. Nomini oliy o'quv yurtlariga, ko'chalarga qo'yaylik. Yosh olimlarimiz Sarvar Azimovning serqirra faoliyati haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borsinlar. U inson haqida hujjatli film ishlab, ommaviy axborot vositalari orqali Sarvar Azimov hayoti, ijodi va faoliyatini yoritaylik, keng ommaga uning kimligini baralla aytaylik. Nasib bo'lsa, 2023-yilda Sarvar Azimovning 100 yilligini munosib nishonlaylik. Sarvar aka bunga arzaydi! Zero, Ozod Sharafiddinov aytganlaridek, «Sarvar Azimov – katta inson edi!»



Umid BEKMUHAMMAD  
Manba: «Ma'rifat saodati»  
gazetasining 2018-yil  
12-noyabr sonidan olindi

# O'QITUVCHI

yoki «Bizning Rossiya ana shunday bema'ni va qo'pol mamlakat»

**K**unlarning birida Anton Pavlovich Chexov (1860-1904) meni Kuchuk-Koy qishlog'idagi uyiga taklif qildi. Bu yerda yozuvchining uncha katta bo'lmagan yeri va ikki qavatli, mo'jazgina uyi bor edi, — deb hikoya qiladi yozuvchi Maksim Gorkiy. U o'zining «имение»sini ko'rsatar ekan, hayajon bilan gapira ketdi:



— Agar ko'p pulim bo'lganida edi, men shu yerning o'zida kasalmand qishloq o'qituvchilari uchun sanatoriy tashkil etgan bo'lardim. Bilasizmi, shunday bir yorug' bino — judayam yorug' va kattakon derazali, baland shiftli bino qurardim. Men bunyod qilgan ushbu sanatoriyning juda ajoyib kutubxonasi, har xil musiqa asboblari, asalarichiligi, poliz-sabzavot ekinlari ekadigan tomorqasi va mevali bog'i bo'lardi. Bu maskanda agronomlik va meteorologiya bo'yicha ma'ruzalar o'qilar edi. Chunki o'qituvchi hammasi narsani bilishi kerak, ha, azizim hammasi narsani!

U birdan jim qoldi. Gaplariga alohida hayajon va ma'no bag'ishlovchi yoqimli jilmayish bilan men tomonga o'girilib, ohista yo'talib oldi-da:

— Mening xayotiy mulohazalarimni eshitish siz uchun zerikarli bo'lsa keragov? Biroq men bu haqda gapirishni xush ko'raman. Rus qishlog'iga yaxshi tarbiya ko'rgan, aqli, bilimli o'qituvchi qanchalar zarur ekanini bilsangiz edi! Bizning Rossiyada maorif ishiga alohida shart-sharoit yaratish kerak. Bu ishga tezroq kirishishimiz zarur. Bir narsani yaxshi tushunib olishimiz shart: xalqi chuqur bilimga ega bo'lmasa, davlat xuddi yaxshi pishmagan xom g'ishtlardan yomon terilgan bino singari qulaydi!

O'qituvchi o'z ishini jondan sevguvchi artist, rassom, san'atkor bo'lishi lozim. Bizda esa o'qituvchi bu — qora ishchi, yomon ta'lim olgan saviyasi past odam. Uning uchun qishloqqa borib, bolalarni o'qitish bamisoli surgunga borish bilan barobar. Chunki o'qituvchi bir burda nonini yo'qotib qo'yishdan qo'rqib yashaydi, u och-yalang'och va jamiyat tomonidan unutilgan insonga aylanib qolgan. Aslida o'qituvchi qishloqning birinchi odami, erkaklarning har qanday savoliga javob bera oladigan bo'lishi lozim edi. Odamlar undagi bilimning kuchini his qilib, o'qituvchiga hurmatga loyiq insondek qarashi va uni e'zozlashi zarur. Bizda esa: uryadnik, boy do'kondor,

pop, daha politsiyasi boshlig'i, maktab homiysi, vasiysi, oqsoqol, maktab inspektori — barcha-barcha o'qituvchiga birdek do'q uradi, baqirib ish buyuradi, ishiga aralashadi, kamsitib tahqirlaydi va unga xo'jayinlik qiladi.

— Xalqni tarbiyalashga, tushunapsizmi, aynan xalqni tarbiyalashga safarbar qilingan insonga arzimagan choy-chaqa to'lash o'ta aqlsizlikdir. O'qituvchining eski-tuski juldur kiyimda yurishiga, chala-vayron maktabda zax va sovuqdan qaltirab turishiga, o'ttiz yoshga yetmasdan sil, revmatizm, laringit kasalliklarini orttirib olishiga sira-sira yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axir bunday holat biz uchun, davlat uchun sharmandalikku! O'qituvchilarimiz sakkiz-to'qqiz oy xuddi tarki dunyo qilgan zo'hdilarga o'xshab kun kechirishadi: yolg'izlikda, ko'ngilxushliklarsiz, kitoblarsiz zehni past odamga aylanib qoladilar. Mabodo biror o'rtog'ini suhbatga chorlasa, darrov uni ishonchni yo'qotganlikda, shubhali shaxslikda ayblashadi. «Shubhali shaxs» — ayyor odamlar ahmoqlarni qo'rqitish uchun o'ylab topgan naqadar bema'ni so'z!

— Bularning barchasi juda katta va sermashaqqat ish qilayotgan odamning ustidan kulish, uni beayov tahqirlashdir. Bilasizmi, o'qituvchini ko'rganimda uning tortinchoqligidan, jur'atsizligidan, nochor kiyim-kechagidan, o'ta qashshoqligidan, mayib-majruhligidan noqulay ahvolga tushib, uyalib ketaman va bunday hol uchun qaysidir ma'noda o'zinni aybdor his qilaman!

U chuqur sukutga ketdi va birozdan so'ng o'ychan ahvolda qo'lini silkib, iztirob bilan shunday dedi:

— Bizning Rossiya ana shunday bema'ni va qo'pol mamlakat.  
Maksim Gorkiy.



Rus tilidan  
Jaloliddin Safoyev  
tarjimai.



# Handalak

**X**ayri xola keyingi paytlarda kuch-quvatdan ham, ovqatdan ham qola boshladi. Avvallari tinim bilmasdi. Bir o'zi tushgacha dunyoning ishini qilib tashlardi. Katta kosani to'ldirib, bitta nonni to'g'rab sho'rva ichib olardi-da, keyin tog'ora-tog'ora kir yuvardi. Endi esa keksayib, kuchdan qoldi. Turmush o'rtog'i yaxshi odam edi. Uyim-joyim deb tinim bilmasdi, ammo juda pulga pishiq edi. Xayri xolaga bir so'm tutqazmasdi, rahmatlik. Bir yili eri bilan bozorga tushdilar. Ko'zi yo'l-yo'l handalakka tushdi. Beixtiyor o'sha tomonga yurdi, bitta kichkinasini qo'lga olib uzoq hidladi. «Oh, oh!» Otasini esladi. Bahor tugab yoz boshlansa, otasi etagiga handalaklar solib kelardi. Kichkinagina bo'lardi ular. Biram xushbo'y. Avval qizlariga, keyin o'g'illariga, oxirida ayoliga bittadan ulashardi otasi. Ammo hamma o'zinikini bo'lshardi. Navbat bilan so'yishardi. Yupqa qilib. Hammaga yetardi handalaklar. Xayri xola o'shanda eriga haddi sig'ib iltimos qildi:

— Dadasi, handalak..

— Yosh bolamisan? Buni kimga yetqazasan?... Hademay qovim chiqadi. Kattasidan olib boraman. Yur, yaxshisi tarvuz olamiz. Hammaga yetadi! O'shanda Xayri xolaning juda-juda handalak sotib olgisi kelgandi. Mayli, yemasa ham. Iforiga to'ysa edi. Aslida, u handalakka emas, otasini yodga solgan shu isga xaridor bo'lgandi.

— Ona, bozorga ketyapman. Nimadir olib kelaymi? Ko'nglingiz tusaganini aytin.

— To'xta, bolam! Men ham boraman. O'g'li mo'min-qobilgina. Boshqalarning bolasiga o'xshab «Charhab qolasiz!» deb bahona qilmadi. Onasi istadimi, hisob. Olib boradi.

Xayri xola tarvuzlar tog'dek uyulib yotgan joyga qarab yurdi. — Tarvuz olamizmi, oy?

— Yo'q, handalak! O'g'li ildam yurib, sotuvchi yigitidan handalak so'radi, u tarvuzlar oldida kichkina bo'lib turgan sariq yumaloq qovunlardan kattarog'ini tanlab

ko'rsatdi.

— Bu emas, yo'l-yo'l haqiqiy handalak kerak. Bu — qovun-ku!, bosh chayqadi xola. Butun boshli bozorda Xayri xola istagan handalak topilmadi.

— Yo'q ekan, mayli, qo'yaver, — dedi ayol o'g'liga umidsiz ohangda. U chindan ham charchagan edi.

— Vaqti o'tibdi-da handalakning, kelasi yil nasib qilsa, yeymiz. Mashinaga o'tirganda o'g'li o'ychan bo'lib qoldi. Kelini qo'ng'iroq qildi. Gaplashib bo'lgach, mashinasini salqinga qo'ydi.

— Oyi, biroz kutib turing, hozir chiqaman.

Xayri xola atrofini kuzatib o'tirarkan beixtiyor o'zi bilan kelinlarini solishtirdi. Nazarida, hozirgi kelinlar erini ayamaydiganek, unga o'z mulki deb qaraydiganek tuyuldi. Keyin turmush o'rtog'ining ko'ziga tik boqman yoshlik paytlarini esladi. «Zamon yoshlarniki. Bir hisobdan shularniki ham durust! Aytganini qildiradi».

— O'g'li ko'rindi. U negadir mashinaning onasi o'tirgan eshigi tomonga qarab kelardi.

— Onajonim, shumi? Ko'zlari kulib, quvonchdan yuzlari yashnab turardi o'g'lining.

— Topdim-mi? — Voy, topibsan-ku! Shuni aytgandim, bolam. Mashina ichiga handalakning mast qiluvchi ifori kira boshladi.

— Bunisini nevaralarizga berasiz. Qo'lidagi yelim xalta to'la handalaklarni onasi o'tirgan o'rindiq yoniga qo'ydi o'g'li. Xayri xola uya bog'unicha dam-badam handalaklarni dimog'iga tutib bordi. «Bekorga onalar o'g'illarini «Otam» demas ekanlar! Otadek g'amxo'r bo'lar ekanida ular. Omon bo'lsin» pichirladi lablari. So'ng ilk bor o'g'lining nomini boshqacha atadi:

— Rahmat, Otam!

Onaning ko'zlari yoshlandi. O'g'li esa mashinasini onasi uchun qadrdon bo'lgan bolalik iforiga to'ldirgancha haydab borardi.

Feruz SALXODJAYEVA

Jangda o'lgan emas biror bahodir,  
Bari halok bo'lgan xiyonatlardan,  
Toshday uxlaganda to'shlarin ochib  
Yo zahar qo'shilgan ziyofatlardan.

Biror asotirda bahodirlarni  
Hattoki yuz boshli ajdar yemagan,  
Ming bir sinoatli yalmog'izlar ham  
Tog'larni o'ynagan devlar yengmagan.

Bari halok bo'lgan xiyonatlardan,  
Bariga orqadan sanchilgan xanjar.  
Shunday bo'lib kelgan azal-u azal  
Mana shu jafokash, ko'hna Vatanda.

Har gal bahodirlar yiqilar ekan  
Kurakka sanchilgan nomard tig'idan,  
Qayta tirilganday bo'lardi nogoh  
Har bir bolakayning qorachig'ida.


Ishongil, hech qachon seni aldamas  
Sofdil elatlarning asotirlari,  
Birorta bahodir o'lganmas jangda,  
Qo'rqoqlar o'ldirgan bahodirlarni.

#### SHOIRLAR XIYOBONIDA

Har mahin laylida  
jonlanar haykal,  
jon kirar Navoiy hatmatlariga.  
Tonggacha dunyoni aylanib qaytar,  
bezib haykallarning hasratlaridan.  
Ayniqsa,  
bahorni xo'b ko'rar hazrat,  
jannatday shaharning harir shablari,  
buldurug' shu'lalar yoshartgan ravza  
ancha ravshan qilar nozik ta'blarin.  
Istaklar  
shabiston qavatlarida  
ishqu noz mayidan bo'lganda luchchak,  
xo'bro'ylar zulumat valatlariga  
bergak lablaridan berganda muchchi,  
hazrat dunyo kezar,  
ko'hsoruv yovar  
mazzildan o'tarkan bamisli sharpa,  
go'yoki togida chaqmoq — takovar,  
bir kech Hirot jonib,  
bir kecha — Mashhad.  
Doim tonglab qaytar,  
chiqar taxtga  
tinglar haykallarning hasratlarini.  
Yuragi ezilar bo'lganacha karaxt —  
oyog'i yo'q edi pastdagilarning...  
Ammo osmon viroq,  
zamin qattiq-da,  
tag'in andomiga qaytar tolg'inlik.  
Tag'in xayol surar turganacha tikka,  
hazratni qiynaydi hamon yolg'izlik.

#### KATTA KUN

Bu qanday kun o'zi,  
qanday kun o'zi,  
hattoki mushuklar, itlar ishshaydi.  
Soxta qahramonlar ketdilar to'zib,  
yolg'on daholarning og'zi qiyshaydi.  
Elning boshiman deb yurgan kaslarda  
bosh o'zi yo'qligi xo'b bo'ldi ayon.  
Pokiza ko'ringan ne-ne dastlardan  
parron bir yog'duda yolg'inlandi qon.  
Bu qanday kun o'zi,  
qanday kun o'zi,  
joy-joyiga qo'yar hamma narsani,  
qay bir munofiqning o'ynatib ko'zin,  
bir nechta yuziga tortar tarsaki.  
Chekka-chekkalarda qilganacha g'iybat,  
ishratni omol deb bilgan o'ysizlar  
qo'ymijoz bu elning tili yo'q derdi,  
og'zingni och elim,  
ko'rib qo'ysinlar.  
Filodim bu kunning sasin eshitib,  
soxtalar zirillar — panoh topilmas.  
Narxi ko'tarilar sichqon teshigin,  
hayratdan og'izlar endi yopilmas.  
Ey, dilim,  
dunyodan ozurda bo'lma,  
kelajak kunlarga ishonmoq xo'bdir.  
Bitta katta kunni ko'rding hozircha,  
bu elning kattakon kunlari ko'pdir.



#### AGAR...

Tuhmatdan yiqilsa  
birorta do'stim,  
men-chi xilvatlarda berkinib yotsam.  
Odamzot ko'ziga qarolmasan tik,  
poklikdan so'ylasam,  
xotira sotsam.  
Yo'q, bo'lmas,  
yashardim boshimni egib,  
kezardim umrbod yurtma-yurt oshib.  
Odamzot ko'ziga qarolmasan tik,  
ko'ksimga osilgan bo'lardi boshim.  
Yo'q, yo'q, yo'q...  
Albatta birga bo'lardim  
tamuq' malaylari ishga tushgan choq.  
Do'stimla yonma-yon turib o'lardim,  
ehtimol, o'lardim undan oldinroq.

#### FARISHTALI

Cholu kampir  
shoshilmay salkam  
bir asrni ham yashab qo'yishdi.  
Kunjaraga, zog'ora, patir,  
tomoshaga rosa to'yishdi.  
Kampirini eshitmaydi chol,  
eshitmaydi cholni kampir.  
Bir-biriga suyanib qolgan,  
biri ketsa,  
yiqilar biri.  
Lek ko'zlari hamon kuladi,  
yuzlarida aylanar ziyo.  
Buziladi dunyo tasviri  
cholu kampir bo'lmasa go'yo.  
Har narsaga qodir tabiat  
asramagin bunday qarishdan!  
Ikkisining kiftidan ketmas,  
sakson yildir  
ikki farishta.

#### QAYTAR DUNYO

Essiz, shundoq umr,  
uqib yetmabsiz,  
azaldan nodonga dunyo torligin,  
loaqal keksani hurmat qil degan  
oddiiy bir maqolning borligin.  
Kecha itlik qilib,  
donoligidan  
sizdayin nodonga pastdan qaragan  
muroniy odamni abgor qildingiz,  
qildingiz nodonga xos bir harakat.  
Endi xavfsiraysiz orqaga qarab,  
ne bo'ldi, boshdan yo' humo uhdimi?  
Yursa, yuribti-da izlaringizdan  
sanoqsiz bolalar  
tugib mushtini.

#### IQROR

Rubobiy she'r yozsam...  
qaytsam bir nafas...  
hamisha musaffo chashmani ko'rsam,  
qoraygan cho'qqilar qoriga qarab,  
bir nafas xayolchan o'smurga do'nsam.  
Voh, o'shal lahzalar...  
o'idimi butkul  
gunafsha atirli tansiq tuyg'ular,  
sahargi bog'larni uyg'otgan bulbul,  
oylarning murlarin elagan suvlar.  
Yashil shajar edim...  
Qandoq sog'indim...  
ko'zimni yashnatsa rubobiy ranglar.  
Qaysi bir dunyoga buncha og'rindim,  
dilimni qaritdi besamar janglar.  
Men jangchi emasdim,  
men shoir edim,  
nihoyat shoirdan ko'ra zobitan,  
har nafas musulmon millatim dedim.  
nafsiga kuyganlar keldi oqibat.  
Haromni xush ko'rgan malakfurushlar  
zig'irday himmatin qilganda minnat,  
yaproqday sarg'ordim buyuk urushda  
musulmon yo'q edi,  
yo'q edi millat.  
Bas, qushlar sayroqi,  
yaproqlari mo'l  
yashil shajar kabi turay mushakkal,  
ilhomim haqida so'ylasinlar xo'b,  
zaharli tilimdan to'kilsin shakkar.  
Rubobiy sabolar ruhimdan esing,  
qaytadan uyg'onsin ilohiy tug'yon.  
Voh, yalang shoxtlarim qilichday keskir,  
bir yaproq qolmaptir shivirlayturg'on.

#### XAYOL

Dunyo...  
dunyo...  
ko'p qadim dunyo...  
na tubi bor, na chegarasi.  
Somon yo'li buzilgan ziyo —  
sayyoraning tillo zarrasi.  
Xayol o'sgan yorug' lahzada  
ehtiyot bo'l fosiq dunyodan.  
yiqilmagin oniy larzadan  
samolarga talpingan odam.  
Ehtiyot bo'l nomard jo'rangandan,  
sinab ko'rish uchun doshingni,  
olmasin-da tag'in mo'ljalga  
pistirmadan yorug' boshingni.

#### DO'STLARIM

Ajoyib, mehribon,  
Aqlli, xushchaqchaq kishilar,  
Yurakdan kulishar  
Kulganda  
Ko'zlari g'alati qisilar.

O'zimni aybladim o'zimni,  
necha bor ularni oqladim.  
Ko'nglimda gavharday porlagan,  
Pokiza tuyg'uni saqladim.  
Saqladim  
Ularning zarblari.  
Ayirib qo'ysa ham hushimdan.  
Goh tulki,  
Goh bo'ri shaklida  
sharpalar kirsam ham tushimga.  
Sobitman,  
Qaytmasman yo'limdan,  
Hali ko'p sinovga yarayman.  
Har kuni do'stlarni ko'rganda,  
Mo'jiza ko'rgandek yayrayman.

#### QASAM

Shavkat Rahmon degan  
bir o'jar shoir,  
bir kuni qaytadan yaraladimi?  
Hayotim ma'nisin juda ko'p o'ylab,  
sayladim so'zlarning  
saralarini.  
Har bir so'z  
yuz so'zning o'rnini bosar —  
Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik.  
Har bir so'z yetajak yuzta umrimga,  
har biri baxsh etar  
ruhimga shodlik.  
Hozirlik ko'rarkan buyuk safarga,  
pushtirang pardali minglab darchadan  
mo'ralab o'tirgan go'zal so'zlarni,  
qoldirib ketaman endi barchaga.  
Aslida atirgul bo'yin taratgan  
bu o'ynoqi so'zlar menikimasdir.  
Menga nonday zarur, qilichday keskir,  
zaharday mard so'zlar bo'lsayog' basdir.  
Sayladim so'zlarning saralarini,  
kurashlar shamoli kirdi nazmimga.  
Yurtimni kezaman,  
endi har narsa —  
egilgan narsalar tegar g'ashimga.  
Endi ishlash kerak bu kengliklarda,  
tokim so'ylamasin yolg'onni hech kim,  
tokim buyuk tog'lar saltanatida  
egilgan boshlarni  
qilichlar kessin.

#### MUHABBAT

Muhabbat — chiroyli kapalak,  
qo'rqaman sho'rlikni tugani.  
Kapalak quvganim yonimda,  
yodimda yo'q ammo yetganim.  
Yuragim ranjigan boladay  
na ermak, taskanga ko'nadi.  
Muhabbat — chiroyli kapalak,  
hali ham gullarga qo'nadi.  
Ortidan halloslab chopaman,  
xijolat bo'laman g'o'rlikdan —  
qanchalik yugurmay, baribir  
orqada qolardim sho'rlikdan.

**?** – Magistraturaga o'qishga kirmoqchiman. Mazkur bosqichda o'qiydigan xotin-qizlarning to'lov-shartnoma pullari davlat tomonidan to'lab berilishi haqida eshitdim. Shu masalada kimga murojaat qilsam bo'ladi?

Hulkar Mirzayeva, Nurota tumani

– Magistraturada to'lov-shartnoma asosida o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt summasini Davlat budgetidan qoplab berish tartibi tasdiqlangan. Buning uchun talabgorlar 15-sentyabrga qadar o'zlarini ta'lim oladigan muassasa rektori nomiga ariza bilan murojaat etishlari talab qilinadi.

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Axborot xizmati**

**?** – Men subsidiya asosida uy-joy olmoqchi edim. Subsidiyadan so'ng to'lovlar qolgan qismini qancha muddatda to'lashim kerak?

Iskandar Jalolov, Uchtepa tumani

– 2021-yilning 11-martida qabul qilingan 6186-sonli Farmonga ko'ra, Moliya vazirligi tijorat banklariga pul mablag'larini hamda tijorat banklari aholiga ipoteka kreditlarini 6 oylik imtiyozli davr bilan 20 yil (yigirmanchi yilni ham qo'shgan holda) muddatga ajratishi ko'rsatilgan. Mazkur Farmon asosida uy-joyning qolgan to'lovlarini 20 yil davomida to'lab borish mumkin. Har oyda qancha miqdorda to'lov to'lab borish kerakligi olingan uyning bahosiga qarab to'lov jadvalida ko'rsatiladi.

**?** – Men chekka qishloqda yashayman. O'tgan kuni mahallamizda YPX xodimlari meni to'xtatib, bayonnoma rasmiylashtirdi. Ular xohlagan joyda mashinani to'xtatib, jarima yozishga haqlimi?

Eldor Niyozov, Muzrabot tumani

– Yo'q. YPX xodimlari xohlagan joyda avtomashinani to'xtatib jarima yozishga haqli emas. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-dekabrda 975-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan, YPX xodimi transportni to'xtatganida haydovchini aynan shu hududda dislokatsiyaga asosan xizmat o'tayotganligi haqidagi hujjat bilan tanishtirishi lozim. Dislokatsiyadan tashqarida tuzilgan bayonnomalar yuridik kuchga ega bo'lmaydi va huquqiy oqibatlar keltirib chiqarmaydi.

**Yurist Ular rasmiy telegram kanali**



**?** – Yaqinda xorijdan keltiriladigan mashinalar uchun bojxona to'lovlarini kamaytirish bo'yicha qaror imzolandi deb eshitdim? Shu haqda ma'lumot bersangiz?

Olimjon Nigmatov, Buxoro shahri

– To'g'ri, «Aholining yangil avtotransport vositalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga ko'ra, ishlab chiqarilganiga 1 yildan oshmagan, dvigatel hajmi 1 200 sm kubdan yuqori bo'lmagan yangi avtotransport vositalari uchun (TN TIF kodi 8703 21 10, 8703 22 10 va 8703 31 10) 2026-yil 1-yanvargacha quyidagi bojxona boji stavklari belgilandi:

1 000 sm kubgacha – 0 foiz (amalda – 15 foiz + 0,4 AQSH doll/kub sm);  
1 000–1 200 sm kub – 5 foiz (amalda – 15 foiz + 0,6 AQSH doll/kub sm).  
Natijada dvigatel hajmi 1 000 sm kubgacha bo'lgan avtomobillar uchun bojxona to'lovlarining jami miqdori amaldagi 39–43 foizdan 19–23 foizgacha, dvigatel hajmi 1 000–1 200 sm kub bo'lgan avtomobillar uchun esa 44–52 foizdan 30–36 foizgacha kamayadi.

**Davlat Bojxona qo'mitasi Axborot xizmati**

**?** – Shu kunlarda magnit bo'ronlari bo'lishi haqida tez-tez ogohlantirilyapti? U asosan nimalarga ta'sir qiladi va undan qanday himoyalanih kerak?

Madina Halimova, Denov tumani

– Magnit bo'roni aloqa, elektr tarmoqlari, navigatsiya tizimi bilan birga, inson salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan surunkali xastaliklarga chalingan, ayniqsa, yurak ishemik kasalligi bilan og'rikan yoki miokard infarkt, insultni boshdan o'tkazgan bemorlar ko'proq aziyat chekadi. Chunki quyosh chaqnashlari tufayli hosil bo'lgan magnit maydoni gipertoniklarda qon bosimi oshishi, yoki aksincha, qon bosimi pasayishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, bosh og'rig'i, holsizlik, qolaversa, turli allergik reaksiyalar kuzatilishi ehtimoli mavjud. Shu bois, bunday og'ir-havo sharoitida surunkali kasalliklarga chalinganlar, keksa yoshli insonlar va homilador ayollar jismoniy faollik, jumladan, zo'rqiqtiruvchi ishlar va mashg'ulotlarni cheklash, ovqatlanish ratsioniga alohida e'tibor qaratish va ko'proq suyuqlik ichishlari lozim.

**Xurshida Shamsiyeva, kardiolog**

**?** – 6 oylik egizak farzandlarim bor. Bola puli olish uchun murojaat qilsam, ularning har ikkisiga ham uch yoshga to'lmaganligi sababli bir xil nafaqa berilishini aytishdi. Shu to'g'rimi?

Iroda Toshkenboyeva, Toshkent shahri

– Vazirlar Mahkamasining 654-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda agar bir oilada tug'ilgan bolalar egizak bo'lsa, ularning biri yoshi 3 yoshgacha bo'lgan kichik bola, keyingilari mos ravishda ikkinchi, uchinchi yoki to'rtinchi hisoblanadi deb ko'rsatilgan. Yuqoridagi normani soddalashtiradigan bo'lsak, agar Sizning oilaviy sharoitingiz bola puli olish uchun belgilangan normalarga to'g'ri kelsa, egizak farzandlaringizdan biri uch yoshga to'lmaganlik nafaqasi sifatida 325 000 so'm, ikkinchi farzandingizga esa ikkinchi farzandlarga beriladigan miqdorda, ya'ni 150 000 so'm miqdorda bolalar nafaqasi tayinlanadi. Shunda egizak bolalarining uchun jami 475 000 so'm bolalar nafaqasi beriladi.

**Adliya vazirligi Axborot xizmati**

**?** – Yaqinda xorijdan keldim. Vaqtincha ishsiz sifatida ishsizlik nafaqasini olsam bo'ladimi? Umuman, bu nafaqa kimga va qancha davrga beriladi?

Zafar Turdiyev, Chirchiq shahri

– Ishsizlik nafaqasi ishdan mahrum bo'lgan, birinchi marta ish qidirayotgan, shuningdek, uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashni istagan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga to'lanadi. Ishsizlik nafaqasi ko'pi bilan ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan yoki uzoq (1 yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan shaxsga 12 oylik davr mobaynida 26 kalendar hafta, shuningdek, ilgari ishlamagan va birinchi marta ish qidirayotgan shaxsga esa 13 kalendar hafta mobaynida to'lanadi.

**Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Axborot xizmati**

## «BESH TASHABBUS OLIMPIADASI»NING STOL TENNIS BO'YICHA BAHLARI O'Z YAKUNIGA YETDI

Namangandagi sport o'yinlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan «Barkamol avlod» sport majmuasida «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasidagi stol tennis bo'yicha sport musobaqasining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Musobaqa 16-21, 22-26, 27-30 yoshli erkak va ayollar o'rtasida o'tkazilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda barcha viloyatlardan sportchilar ishtirok etdi.

**Shiddatli va murosasiz kechgan**

bahslarda ayollar o'rtasida tegishli yosh toifalarida Feruza Qo'ldosheva, Taxmina Ravshanqulova, Dinara Sayfidinova hamda erkaklar o'rtasida Abror Normurodov, Shuhrat Shodiyev, Qodir Rabbimov birinchi o'rinni egalladi. G'olib va sovrindorlarga tashkilotchilar tomonidan medal, diplom va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

**Hotam MAMADALIYEV, O'ZA**



«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**  
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV, Abror PO'LATOV, Amiriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DABAJONOVA, Minhojidda MIRZO, Nodir MUXTOROV,

Bosh muharrir:  
Mirodil ABDURAHMONOV

**TAHRIRIYAT MANZILI:**

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxozoda ko'chasi, 1 A-uy. Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflarga qaytarilmaydi.

**NAVBAATCHI MUHARRIRLAR:**  
Ravshan MAHMUDOV, Mahbuba KARIMOVA  
**NASHR UCHUN MAS'UL:**  
Ma'murjon YULDOSHEV  
**NAVBAATCHI:**  
Feruza XODJAYEVA  
**DIZAYN GURUHI:**  
Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Korxonamanzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

**Elektron pochta:**  
mtk@sharq.uz  
mtk@mail.ru

ISSN 2010-7714



1898 E 010-7714

2008-yil 29-oktabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan №0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

**Adadi – 8 657.**  
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda. **Qog'oz bichimi:** A3. Hajmi: 4 bosma taboq. Buyurtma: G – 616. Boshiga topshirish vaqti 21:00. Topshirildi 2:40